

*Nafisa Omon*

To'qqizinchi  
mo'jiza





## Nafisa Omon



*Men hali hech kimman – yo 'llar oldida,  
Qarzim ko 'p, qo'l bergen qo 'llar oldida.  
Hayotim – umrimdan uzun bo 'ladi,  
Ishqim bor – mehribon dillar oldida!!!*

*Nafisa Omon*

\* \* \*

Ko'kga uchgan qushlar tolsa yerga qaytgay,  
Qaldirg'ochlar o'z ayvonin topib kelar.  
Beshigiga Bibixonim alla aytgan,  
Ajoddlardan — avlodlarga shu yurt qolgay!  
Qayda bo'lma, sog'inchingning ko'pi — Vatan!  
Har insonning bir merosso'z, gapi — Vatan!

Rostin aytsam, halovat yo'q seningdayin,  
O'zingniki bo'lsa tashvish, mehnat go'zal.  
Mehribon yo'q, saxovat yo'q seningdayin,  
Senga eltar yo'lida cheksam, zahmat go'zal  
Ona tuproq, sendagi fayz qayda, Vatan,  
Yaratgandan bizga kelgan hadya — Vatan!

O'zi yemay elga bergen odam — Otam,  
Shu damgacha senga nima nafim tegdi?!

Indamaysan, boshim silab, jilmaysan,  
Nahot hayot daraxtimni xato ekdim?!

Hatto qattiq ranjishlaring odob — Vatan,  
Odamlarga — odamlikdan kitob, Vatan!

Nima desa — deyaversin, tili uzun,  
Sen birovning oshin tortib olganing yo'q.  
YO birovning tinch va totuv uyin buzib,  
Dunyosiga hiyonatlar qilganing yo'q,  
Nomim tashib qolguvchi rost so'zim — Vatan!  
Men kim bo'lsam, huddi mening o'zim — Vatan!

\* \* \*

Iloha baxt o'psin izlaringizni,  
Dardga armon bo'ling, alamga o'gay.  
Iymon yorug' qilgan yuzlaringizni,  
Nuriga tutilay!  
Bahrida cho'kay!  
Iloho!

Bilmay aytgan barcha gumonlarimni,  
So'zlamay anglatsin farishta onlar.  
Sizdan sizga eltgan tomonlarimni,  
Tarkiband qilmasin aslo, imkonlar.  
Iymonlar!

Xudo omon qilsin yolg'iz boshingiz,  
Sizdan g'am ko'rmagan onangiz bilan.  
Ishqdan uzun bo'lzin umru yoshingiz,  
Men ham murod topay sizga baxt tilab,  
Iloyim!

Ikki ko'zmunchoqday opalaringiz,  
Ikki qo'lingizda qo'ngan Humodir.  
Hayotimga baxor kelmagay sизsiz,  
Ko'ksingiz — men uchgan sirli samodir!  
Bilsangiz!

Mehr qahat qolmas kunlarda bo'ling,  
Allohning kimgadir qiygan rizqisiz.  
Mudom kaftimdasiz!  
Duoday to'lib!  
Qalbimdan kechmasin marhamatingiz!  
Ko'ngildan!

Yig'lab uxlab qolgan tunlarim haqqi,  
Jonimga omonat bo'ldi ismingiz.  
Yaratgan! Qo'lingga zorlanib boqdim,  
O'zingga omonat bo'lzin ishqimiz!  
Iloho!

\*\*\*

Mening bitta siyosatim bor-  
Vatanni sevmoq!  
Onam deb,  
Otam deb,  
Jonday arzanda!  
Men kim bo'lsam, U o'sha  
Yaxshimi- yomonmi, o'zimga!

Mening bitta mahoratim bor-  
Vatanni sevmoq!  
San'atning zo'ri,  
Qarsak, hushtaksiz!  
Jim va mardona!  
Baxtiga yarab!  
G'amiga yarab!  
Tavof qilib ko'zimga!

Mening bitta jasoratim bor,  
Aybga buyurmang.  
Agar Yurt mavzu  
Ayay olmayman,  
Qaramayman ham  
Kimligingizga,  
Itoatdan chiqib shiddatim  
Tupuraman yuziga!

\*\*\*

Bir kun kelib o'rtamizga Oy tiqilsa,  
Oyga bermang!  
Tundan qo'rwmang, mening o'zim  
Oy bo'layin.  
Goh o'tmishdan so'roq sig'gan  
Joy tiqilsa,  
Qattiq quching! Men sevilib boy bo'layin!

Hijil bo'lmgang, oshsiz qolsa qozonimiz,  
Non topmayin qaytsangiz ham, kulib qayting.  
Birga o'tsin, Xuftonimiz, Azonimiz,  
Sajjodada mendan Unga salom ayting!

Boshim qo'ysam ostonangiz, bosh tortmasin,  
G'amlar g'ajib bitirmasin, qovurg'angiz.  
Taroziga solmang, biroz yosh tortmasa,  
Men kuyganman!  
Kullarimni sovurmangiz!

Kelajakning beshigiga beka bo'lsam,  
Ishqingizga qulday mahkum etsa Xudo.  
Dunyogamas, faqat sizga erka bo'lsam,  
Umrimizni sanasa baxt hech bexato!

\*\*\*

Men ne deyin, ora -sirada,  
Qolib ketgan gumonlar tirik,  
-Yaxshimisiz, -deya so'raysiz,  
Ko'zimdag'i yomg'irni ko'rib!

Va hech qachon yomon bo'limgan,  
Mendagi dard tug'ma muhabbat.  
Axir buncha imkon bo'limgan,  
Boshimda toj, sabr - saltanat!

Arazlaysiz, qarz berolmasam,  
Mehmon bo'lib bormasam, uzoq.  
Nima qilay kun ko'rolmasam,  
Mening ko'zlarimda shamchiroq!

Oyog'imda eng arzon paypoq,  
Barmog'imga loyiq uzuk yo'q.  
Baxt degani menimcha ko'proq,  
Bo'lmasa ham ba'zan qornim to'q.

Qay kumin ni ko'rdim- ko'rmadim,  
Bu yo'llardan olib o'tyapti.  
Men ko'ngliga yetib bormagan,  
Odamlar ham o'lib ketyapti!

Shoshiladi millar, namuncha,  
Kim nima der?!

So'ng bor! Ko'ramiz!  
Bu dunyoni bitta maymuncha,  
O'yingohga otsa, yaramas!

\*\*\*

Sevdim!  
Yoki shunday tuyilayapti,  
Kirib ketdi qara ko'zimga!  
Xudo sendan uyalayapman,  
Uni so'ragani o'zimga.

Senga nima berdim!  
Borim isyonkor!  
Do'st izladim, rohat istadim.  
Yo'qlamasa dunyodagilar,  
Bosh egildi...  
Seni izladim!

Kechirimga balki yetmaydi,  
Qay gadoga ulashdim shodlik.  
Mening iqtidorim o'tmaydi,  
Qara qanday kunlarga qoldik!

Sevdim!  
Yo kechikdi ikkinchi Bahor!  
Men adashib qayerga keldim,  
To'g'ri yo'lni ko'rsatib yubor!

\*\*\*

Men kutaman! Qaysidir kuni,  
Samalyotda! Bitta o'rindiq,  
Oynasidan bulutni yorib,  
Sen kelasan,  
So'zingga sodiq!

Daraxtlarda intiq kurtaklar,  
Yer titroqdan ajoyib, karaxt.  
Yelkasida opichlab baxtni,  
Istanbulga yaqinlashar,  
Mart!

Alam qilmay qo'ydi avvallar,  
Erta bilan ishim yo'q ortiq.  
Gul tutaman!  
Kulib olamga!  
Mehrim qolmas hech kimdan ortib!

Men kutaman!  
O'zimdan keyin!  
Yaratilgan qismatga maftun,  
Hammagini bir chetga qo'yib.  
Yashamoqqa!  
Muhabbat uchun!

\*\*\*

Sev!  
Kutmayman boshqa iltifot!  
Azoblarda qovrulsam, kuysam!  
Tarixlansa gullagan sabot,  
Va o'tganni unutib qo'ysam!

Lablarimda so'yib mazmunni,  
Ko'zlariningdan ichsam ishqni, mast.  
Bo'lib bo'lmas bunday Atomni,  
Kela olmas hech bir zarra bas!

Qullik qilsa jamiki istak,  
Ikki dunyo bir bo'lsa qani.  
Ishq ko'z ichgan farzandlar ko'rsak,  
Bu eng go'zal savob degani.

Ko'karmasa izlaringdan o't,  
Chuqurlashsa yo'llar harsillab.  
Men dunyodan ketmayman behud,  
Sen ketmasang, dildan aslida!

\*\*\*

Kelib- ketding!  
Va olib ketding!  
Qolmoqqa tor,  
Ketmoqqa malol.  
Qayda qoldi biyron tilim O,  
Ey ko'zi pok!  
Yuragi halol!

Senga nima deyman, bilmayman,  
Aytganingday kutmoq,  
Yana vaqt.  
Axr butkul yolg'iz qolmayman,  
Tashlab ketding baxt uchun dastxat!

Yo'llar nima, yillarim kechdi,  
Men kutish va kuttirishda ast.  
Hayol qayda pir etdi, uchdi,  
Qulog'imga nay chalding sarmast!

Bir chekkada qolgan qalbimni,  
Olib qoqding, changlarim uchdi.  
Valdiradim, bilmasdum darding,  
Ko'zim ochib, ranglarim uchdi!

Endi qanday aldayin o'zni,  
Rad etmoqqa umrim yetmasov.  
Yoqsa qaydan kelarding izlab,  
Uyg'otmasang!  
Olib ketmasang!!!

01.02.17

\*\*\*

Puflab yoqdim o'choqni,  
Yonmay kuydirdi o'tin,  
Anor kesgan pichoqni,  
Dema sababsiz qotil.

Sen sanading, hisobchi,  
O'tganov ota - bobong.  
So'ng qilding "bosdi-bosdi",  
Ey tegrasi zo'r zamon!

Qaydan bilay, avvallar,  
Do'st bilibman, sevibman.  
Bugungacha amallab,  
Unutmayin kelibman.

Puflab yiqdning, yiqlidi,  
Qancha kutgan kunlarim.  
Tomog'imga tiqildi,  
Achimsigan unlarim.

Yonmay kuydirdi o'tin,  
Yoki hali ho'l edi...  
Yo baxtdan bag'ri butun,  
Yo yurilgan yo'l edi.

Anor qoni tomgan til,  
Yutundi g'amlar chanqoq.  
Kulding!  
Doim omon bo'l!  
Ey ishqda g'irrom o'rtoq!

\*\*\*

Barmoqlarin uchi nimpushti,  
Lablarida qolgan sut yuqi.  
Kecha o'yinchog'in talashib,  
Ko'zmunchoqlar yurarding taqib.

Sochi chigal!  
Yo'llari ochiq!  
Sal gap uqmas, shoshqaloq eding.  
To'p tepishib bolalar bilan,  
Qo'llari kir, ko'zi oq eding!

Hovuchimda raqs tushar mehnat,  
Tilim uzra ming tugun oh bor.  
Sochimdan ham ko'proq iborat,  
Ko'zim to'la sonsiz saboq bor.

To'p o'ynagan do'stlar ulg'aygan,  
Uyli - joyli, kattarib ketgan.  
Yo'llarimga onam mung'aygan,  
Mening dastim sog'inchga yetgan.

Ey bolalik!  
Bahorgi yomg'ir,  
Qizg'aldoqning kiprigidagi.  
Seni qumsash eng go'zal og'riq,  
Og'risa ham mayli, yuragim!

Eslash go'zal,  
Yengil tortar yuk,  
Qayta tug'ilganday o'lasan,  
Aslida shu o'tgan kunlarni,  
Eslayverib nobud bo'lasan!

\*\*\*

Esimda yoq hech bir muddao,  
Yuzimga chang soldi erka ishq.  
Bovulimda bir to'da xato,  
Cho'milishni sevar qorachiq!

Yukim yukday otiga monand,  
Qayga borsam yurar ergashib.  
Biz ikkimiz Samar hamda Qand,  
Yo'llarimiz ketgan chalkashib.

Charchamasmi bir qora ishchi,  
Charchamasmi bir qora ishqchi?!

Horimayman yodingga tushsam,  
G'amlar telegramdagi qiziqchi!

\*\*\*

Uvalangan ozroq pechene,  
Choy. Shakarsiz.  
Beshinchi qavat.  
Sovuq quchoqlagan kechani,  
Qulog'iga pichirlar hasrat.

Erimoqqa erigan kir qor,  
Yangi Yanvar tuni tund soya.  
Lampalarning tafti beozor,  
Yo'laklarga so'zlar hikoya.

Derazaga sig'gancha tasvir,  
Bu atrofni yaxshi bilmayman.  
Biton uylar turar bemehr,  
Choy ichyapman!  
Nega yig'layman?!

Hotirjamlik O'zbekistonning,  
Ko'k darvoza bitta uyida.  
Bo'lsa edi hozir imkonni,  
Bo'lmas edim sira bu joyda.

Yuragimga begona bari,  
Fayzsiz juda shohona manzil.  
Men ayamni sog'ingan sari,  
Nafasimga sig'maydi huzur.

Omon bo'lgin ey Ko'k darvoza,  
Ota hovlim!  
Ona tuprog'im.  
Chang ko'chalar ko'nglimdan toza,  
Tunlari ham tongdan oppog'im.

\*\*\*

Yillar hisoboti imzosiz qoldi,  
So'zma - so'z taniysiz ko'zimni zotan.  
Meni g'am va sizni sho'r tuproq oldi.  
Tomoqda tosh qotgan,  
qanday yutaman?!

Keling, juda oddiy va ba'zan ovsar,  
Foydasidan zarar ko'rgani ko'proq.  
Yurakni orqalab yurgan darbadar,  
Sizni yo'qotishdan qo'rqardim, biroq.

Mening qattiq qo'lli, yumshoq dil Otam,  
Og'zidan shirin so'z chiqmagan bir bor.  
Bugun har nafasim borsinlar maqtab,  
Otamga rahmat ayt!  
Ey bor! Xudoyo!

\*\*\*

Biz ikkimiz!  
Eng uzun yo'lmiz.  
Sog'inchlarga oyoq va qo'lmez.  
O'rtamizda bir qora dengiz,  
Suvsiragan, qaqrangan cho'lmez.

Qaytmas endi chaqirib ko'r-chi,  
Soyasi yo'q devor o'rtada.  
Men o'zimcha vaqtga ulgurdim.  
Kaftim to'la hijron xarita.

Ayamayman endi hatto-ki,  
Ko'zida yosh ko'rsam ilonni.  
O'rtamizda kimsasiz sohil,  
Bor iqrorlar o'rtada yondi...

\*\*\*

Qarang qanday kamsuqumman-a,  
Pisht demadim, mushugingizga.  
Ikkizingizga bo'lsa tantana,  
Hasrati yo'q qo'shig'ingizga.  
Qarsak chalmas menimcha yurak.  
Entikmaydi biror orzumand.  
Menimcha sal insof ham kerak,  
Muhabbatga esa oqibat.  
Hamma narsa emas milliyat,  
Odat emas ozorlar axir.  
Baqbaqalar emasdир savlat,  
Ba'zan yo'lidan uradi sabr.  
Aslo!  
Qaytib bo'lmaydi endi.  
U manzildan ketgan izlarga.  
Qolgan ilinj, isinmas endi,  
Ilitilgan shirin so'zlarga.  
Sizni juda ayayman qarang,  
Qolib ketgan hamma intiqom.  
Men birinchi ketganman arang,  
Siz tarafda abadiy tamom.

\*\*\*

Ish rejasi tuzilgan puxta,  
Boshdan oyoq mukammal bari.  
Cho'ntagida dastro'mol paxta,  
G'oyalari yosharib - qarir.

Kuz istamas, xazon istamas,  
Yozilgandan yozilar qahat.  
Uvol bo'lган nonday muqaddas,  
Qaylardadir kirlangan bu baxt.

Axir juda madaniyatli,  
Tufrigini yutar ichiga.  
G'olib bo'lish bunda odatiy,  
Ishonadi juda kuchiga.

Bir kun juda uzoq yo'l bosib,  
Va nihoyat hayolga toldi,  
O'z - o'ziga birinchi marta,  
G'alatiroq savolga qoldi.

Bir paytlari... qaydadir... kimdir,  
Meni juda yaxshi ko'rardi.  
Eslolmadi nima uchundir,  
Yuragida hijl turardi.

Qayda juda mukamallikdan,  
Mantiqsizlik kabi bu hislat.  
Yolg'iz qolgan murakkab odam,  
Yuragiga qilgandi hijrat.

\*\*\*

Oliy janob, afandi odam,  
Ichmas, chekmas hech qachon g' amni.  
Qulqo- burni o'sarmish mudom,  
Yolg'on gapirgani uchunmi...

Ishontirmoq emas muammo,  
Aldanmoqqa moyil yurakni.  
Xato bo'lsa eng go'zal xato,  
Ishq o'ldirgan jami sergakni.

Yo'lidan urgan emas boshqa hech,  
Ishoralar ko'zingday rangdor.  
Bunday oqil, va oliy o'tginch,  
Isming esa ishqiday jarangdor...

Ichmas chekmas hech qaysi g' amni  
Unitadi - qo'yadi.  
Kuchli...  
Qo'llarida qonimning ta'mi.  
Yuragimni olgan uchunmi...

\*\*\*

Bir noraso avlod kabi,  
Yuragimdan chiqqan yaram.  
Yevgeniyni esga oldim,  
Uzoqlardan senga qarab.

Sal qolgan yo hech qolmagan,  
Iqror qolmoq uchun vaqtim.  
Bundan boshqa yo'l qolmagan,  
Lablarimdan qattiq chaqqin.

O'lsam gulning quchog'ida,  
Islarida qolsa izim.  
Muhabbatning pichog'ida,  
O'yilsina ikki ko'zim.

Quyosh chiqar kun botarda,  
O'rtamizda Hind okeani.  
Do'st qolmagan sir sotarga,  
Dushmanim ham yo'q kulgani.

Men negadir Oneginga,  
Rahmim kelib yig'lar edim.  
Va Pushkinni yostig'imga  
Ko'mib qo'yib uxlar edim.

Mayli unut aytdim- qo'ydim,  
Bugun havo bulut edi.  
Yig'laysotsam bir o'tginchi,  
O'tib ketar unut dedi...

\*\*\*

Gumburlaydi ichimda osmon,  
Tomirimda sel oqar shiddat.  
Bilasanmi sen bergen armon,  
Mening uchun judayam qimmat.

Chaqmoq chaqar naq yuragimda,  
Nigohingni urib o'ldirar.  
Qanotlanar baxt kuragimda.  
Yuragim yonar yildirim.

Mening uchun eng muhim ish shu,  
Sog'inchingga ko'milib o'lmoq.  
Yashayverar muhabbat mangu,  
Baxt shu - ishqqa aylanib qolmoq.

Yog'ar uchqun, yog'ar sen uchun,  
Ko'zimdan so'z, lablarimdan so'z.  
Hayolingga qo'naman uchib,  
Peshonagda qoldirmoqqa iz....

\*\*\*

Uyimizdan uncha olismas,  
U ko'chaning boshi qabriston.  
Men uzoqda katta bo'lyapman,  
Har luqmamga vatan jabriston.

Uxlash qayda tun va kun ayni,  
Ko'zim rangi qora va qizil.  
Boshimdadir sinovlar payti,  
Qanotini turibdi yozib.

Hiqqildoqda qanchadan- qancha,  
Attanglar bor, g'urur, shukur ham.  
Qancha amin bo'lmadim... qancha,  
Baxt yo'q biror Vatanday ulkan!

Sharoitga tirmashib Sog'inch,  
Men uzoqda,  
U ham!  
Har yonmiz.  
O'tmish kunga yo'qdir o'chirg'ich,  
Qalam yo'qdir rangdor, hayronmiz!

\*\*\*

Tuman g'ilofini kiyib boshiga,  
Dovdiratmoq istar istakni jabr.  
Ishonib bo'lmaydi kirgan yoshiga,  
Do'nipayib yotibdi bir yangi qabr.

Tiriklar yashaydi, dardlari bilan,  
Faqt o'lganlarga bu yerlar pastdir.  
Yig'lolmagan ko'zim oqibat qilgan,  
Otam kirgan tushlar hammasi rostdir.

Qonimdag'i hamma zarrachalarda,  
Qo'lingizdan totgan luqmai halol.  
Meni qozonmagan marrachalarda,  
Sizga yetolmagan rahmatlar malol.

Ay izg'irin muncha menga qolgan qish,  
Pechkaga dil tutsam isimas qaytay.  
Qayta kelmaslarni qattiq sog'inish,  
Qandayligin qanday tariflab aytay?!

Begona shaxarlar... begona yuzlar...  
Gavdalar... oyoqlar... boshlar... yuraklar...  
Yashashga bahona topaman yuzlab,  
Ammo hech sababsiz menga keraksiz!

Rahmat yomg'iriga aylansin yoshim,  
Shirin kasl bo'lib ketgan odamga.  
Bor bo'lsa hammasin berib qo'y Xudo,  
Qilgan savoblarim barin Otamga!

\*\*\*

Men o'taman har kungi yo'ldan,  
Ish va ishqdan yelkamda nadir.  
Bosh ko'tarsam sirg'alar qo'ldan,  
Oyog'imning ostiga kibr.

Sovuqqina jilmayar quyosh,  
Yaltiraydi muzlagan ko'lmak.  
Archalarning ignalari yosh,  
Yig'lab ketgan qay Qishgi ertak.

Krasovkam izi qoladi,  
Nam chizgilar - quruq zinada.  
Oyoqlarim yaxshi biladi.  
Yurib kurgan g'amni piyoda.

Sovuq jang bu lekin keskinmas,  
Ich - ichimda yashaydi kulgu  
Har kun yurgan ko'cha eskirmas,  
Rejalarga ilova yo'l bu.

Aksiraman, sog'lik tilayman,  
O'zbek emas bu yerda hech kim.  
O'z - o'zimga oqibatliman,  
Bo'lmaydiku birovdan ranjib.

Isiriqning hidin qumsayman,  
Toshkentda hech gripp bo'lmasdim.  
O qadrini avval bilsaydim,  
Lo'lilarni xafa qilmasdim.  
Eh bu yo'llar!

Maqsadga g'oya!  
Choponimga cho'ntak o'ylaydi.  
Men yetmadim, sog'inchlar soya,  
Yuragimni tishlab o'ynaydi.

\*\*\*

Qarib balog'atga yetdi suronlar,  
Haliyam qizarmas yuzingda oling.  
Seni uyli qilib qutqarish kerak,  
To'palonchi dunyo, nedir bu holing?!

Qaylarda qoldirdi insoflaringni,  
Yirtilib ketibdi hayajonlarining.  
G'arbmi, yoki g'arib taraflaringmi,  
Tuproqqa qon sepib g'alayonladning.

\*\*\*

Yoshli ko'zda quruq gap bo'lmas,  
G'am bo'lmasa bo'lmaydi shodlik.  
O'nglanmasa hech bir chap bo'lmas,  
Bizlar ham biiir ishondik...

\*\*\*

To'rt tomonda eshicingga qulog'ini tutgan ko'p,  
Bir aksirsang, kafan bichib, nog'orasin qoqqan ko'p.  
Sizga nima ham der edim,  
Baxtli bo'lgur bahillar,  
Bilib qo'ying bir xalqki bu -  
Sinovlardan o'tgan ko'p!

\*\*\*

Qozoningiz to'la makaron,  
Osh qilasiz urvoqni qoqtirib,  
Pichirlaysiz, tovba qildim-ey,  
Kim tegibdi erga yoqtirib.

Qarg'aysizmi, yo yig'laysizmi,  
Holim shudir Xadicha xola,  
Urshmoqlikka bel bog'laysizmi,  
Yig'lab tursa,  
Yuragim!  
Yig'lab...

Bir paytlari qishlog'imizda,  
Sizdan go'zal qiz yo'q edi, rost.  
Yuzingizga yo'l solibdi vaqt,  
Chuqur, sayoz qancha baland- past.

Qizlaringiz baxtli bo'lishsin,  
To'ylar qiling, ko'paysin tashvish.  
Baxtli bo'lsin hamma sizday chin,  
Yo'qolsin shu hamma yo'qotish.

Ko'tarilmay qon bosimizingiz,  
Meni o'ylab o'ksimang Xola.  
Nima qilay bu yozig'imiz,  
Tirikmiz-ku, eee bir gap bo'lar!

\*\*\*

Olsda allalar ruhimni Vatan,  
Tanovar oqadi tomirlarimda.  
Qanot o'sib chiqar yelkalarimdan,  
Istar, jonim bolam!  
Sog' - omon yurgin!

Sukut yoqasiga yoshlarim oqqan,  
Burnim piqqillagan, jim yig'layverib.  
Haqqning halol et, ey meni tuqqan,  
Ketdim... yo'llar meni xop chorlayverdi.

Iljayib turibdi ro'paramda dard,  
Yamlamay yutyapman takalluflarni.  
Chamadon burchagi saqlayotgan gard,  
Samiymyroq balki barcha lutflardan.

Zirrillab og'riydi muhabbat tishi,  
Orasida qolgan bo'lkanonim san.  
Vatanim,  
Halovat to'la tashvishim,  
Men seni sog'ina boshladim chindan!

\*\*\*

Qor sepalab Qishlagan,  
Tarnovlar muz tishlagan.  
Issiq o'lkalarda ham,  
Sovuqqotib ishlagan...  
Men ishqilib bir nima  
Qilib chidab yuribman  
Aya, kecha Otamni,  
Yana tushda ko'ribman...  
Toshkentga ketayotsam,  
Kulib qarab turganmish.  
Hovlimizga to'ldirib  
Ko'chat ekip yurganmish!  
Pul so'rasam bir qisim,  
Konfet tutib turganmish  
....Otam meni haliyam,  
G'amim chekib yurganmish...  
Bu yangi yil qandayin  
Uyalmayin kelarkan  
Otasiz dasturxonda  
Nimadir kam bo'larkan...  
Aya sizni sog'indim...  
Ko'rpanqizdan joy bering,  
Uxlay quchib, isinib.  
Bu erkin, keng dunyoda  
Ketdim juda qisinib...  
Yaxshiyam shu oqshomlar  
Umidi bor kunlar bor  
Baxtli bo'lish osomni  
Siz borsiz!  
Yaxshiyam bor!

\*\*\*

Qo'shiq to'la, kuy to'la,  
Tabriklayman to'y bilan.  
Sizni olib ketarman,  
Bittagina o'y bilan.

Menday bo'la olarmi?  
Bilmaysiz-da boshqalar.  
Endi qanday kularman,  
O'ylab ko'ring yaxshilab.

Hech bo'lmasa, bo'lmasin,  
Dunyoda bitta baxtsiz.  
Hazilingiz o'lmasin,  
Bunchalik ham shafqatsiz.

Qarang tan olib qo'ydim,  
Dimog'im cho'kdi biroz.  
Onangizdan xafaman,  
Bermabdi menga ovoz.

Boreeee deb ketsam qiyin,  
Qular yangi sayyora.  
Tegib ketaman keyin,  
Men ham bitta bekorga.

Quloq soling ko'nglimga,  
Alamlarga ishonmang.  
Labi do'rдиq, qosh emas,  
Qalamlarga ishonmang.

Mendan o'tdi azgincha,  
Qiz bolaman tushuning.  
Hali-hamon qochoqman,  
Keling menga qo'shiling!

\*\*\*

Ishqibozlik qildim umrimda ilk bor,  
G'olibi bo'lmanan ishq o'yiniga.  
Yutdim!  
Ichim to'la achchiq tutunzor,  
Bittim, peshonamga yozib qo'yilgan.

Zang rangiga do'ndi soviyotgan choy,  
Farosatsiz haddan tashqari ichdim.  
Sen bor shaxarlarda qiynoq hamma joy,  
So'ng men bor yurakka istaksiz ko'chdim.

Endi borolmayin yuribman attang,  
Attang, uvalanib boryapman muncha.  
Mehringni olib ket, qurutayotgan,  
Tugab qolaman-ov o'zim borguncha!

\*\*\*

Torayib bormoqda dunyo naqadar,  
Bezbet qushlar donlar qo'limga qo'nib,  
Huddi avvalgidek jilmayib boqar,  
Ko'zlarda ishq so'nib!

Havas qilmay qo'ydim balandliklarga,  
O'pkalab - o'pkalab burchaklar qisar.  
Otib yuboradi yana safarga,  
Sevgimdan bezar!

Orqaga qaramay uchar samalyot,  
Indamay kutadi chegarada g'am.  
Bu bir talofatni kashf etgan hayot,  
Murakkab tuyg'uman!

\*\*\*

Hech kimi yo'q umrda ham qarish mumkin,  
Xorish mumkin tashvishsiz ham, ahyon- ahyon.  
Kun chiqarga bir amallab borish mumkin,  
Lekin meni unutgansiz juda oson.

Sabab izlab ko'rayapman ranjimoqqa,  
Men attangi vajlar bilan qoldim g'arib.  
Daryosan deng,  
Ishqi daryo bir irmoqqa,  
Ummonlarga aylansaydik bir kun borib.

Qarab tursam, tusu turli bir yo'ldamiz,  
Sizdan oldin tug'gan meni Sevgi aya.  
Yo doyasiz qolganmizmi, bir holdamiz,  
Kindigimiz kesilmagan bir kinoya.

Hech kimi yo'q umrda ham yashahs mumkin,  
Sog'inmoqlik mumkin hatto taqiqdan so'ng.  
Qo'y-eeee demas qo'limizni tutgan g'amgin,  
Siz ko'r ekan,  
Oralar kar,  
Men ham bir gung!

\*\*\*

Meni singan joylarimdan sev,  
Kut hech qachon kelmagan joyda.  
Aytmaganmanmi yo sevaman deb,  
Men qaydaman,  
U so'zlar qayda?!

Meni ketgan yo'llarimdan o't,  
O't olmagan gulxanlar yonsin.  
Yuluq, kesik qo'llarimdan tut,  
Ko'zimga boq,  
So'zlarim tonsa!

Kulsam, yig'lab olganman avval,  
Besh daqiqa oldinroq, qattiq.  
Muvofaqiyat tuzilgan jadval,  
Hisobotlar - senga chaqiriq.

Meni yanglish yerlarimni bil,  
Va ardoqla xatolarimni.  
Chunki ular senga boshlar yo'l,  
Ayblamadim men ham ularni.

\*\*\*

Hamma havotirda Trampdan,  
Yanada o'zgarib ketarmush dunyo.  
Yer buyuk sahnaga aylangan,  
Dramaturg emish Amirqo.

Men zerikib hamma xabardan,  
Xat kutaman, xatsiz tomondan.  
Yukunib sog'inchga, sabrga,  
Xavotir olaman bobomdan.

Balki ismini ham unutgan,  
Lekin unutmagan qiblasin.  
Nima kutsa Xudodan kutgan,  
Hatto-ki jiiimligi bir bazm.

Uni o'zgartira olmas siyosat,  
U sovet davridan qolgan chidamli.  
Uning yuragida hamma saodat,  
U shunday behatar odamdir.

Ba'zan juda xursand bo'laman,  
Farq etaman chegaralarni.  
Bir kun men ham go'zal o'laman,  
Nevarasi bo'lsam ularni.

\*\*\*

Bu yerda ortiqcha hech nima yo'qdir,  
Hiyłasi yarashgan sanamlar bunda.  
Bor idrok mudradi, tovonga cho'kdi,  
Kechib ketolmadim sendan  
Bugun-da!

Aylanib ko'chaga chiqdim va bezdim,  
Bu yo'lga toshlar ham, g'ishtlar ham kerak.  
Qandaydir o'zimni ke r aksiz sezdim,  
Baromoqlarim uchi titramas sira.

Qo'rqlmay qolarkansan olishaverib,  
Qon yutib,  
Yo'qotib,  
Topganim shu so'z.  
Yoki bilib qoldim yanglishaverib,  
Ichimda sen borsan,  
Men va sen yolg'iz.

Qaytaman, ag'anab bo'ltak ko'rpaning,  
Burilib qo'yilgan g'arbona raqsin.  
Bu yotoq meni hech tirik ko'rmagan,  
Umrimning ko'piga tushuncha taqsim.

Tenglik shu, hech narsa ortiqcha emas,  
Hoyin do'st ham eshik qoqarkan bir kun.  
Hech bir g'am, bo'ldi-da, men ketay demas,  
Men ketsam qaytadi, baxtlarim uchun?!

\*\*\*

Bugunni yeb qo'yar ertaning vahmi,  
Eslash bilan o'tar umrimiz ko'pi.  
Eslasang...  
Haliyam chiqarmi jahling?!  
Lekin oramizdan uch sana o'tdi.  
Hech bitta kunimga aloqang yo'qday,  
Kimsan?!  
Qaylardasan?!  
Demaysan sen ham.  
Yuragimga tutdim qurolday o'qlab,  
Otib o'ldirmadi meni shuncha g'am!  
Men yashab to'ymagan askarday quvman,  
Ammo bu jangohdan yakkaman- yakka.  
Meni onam emas,  
Muhabbat tug'gan,  
Shu ishq bor - yo'g'imga bergen baraka!  
Bugunni yeb borar ertaning vahmi,  
Bu o'ylar o'zimdan ko'p o'ylar seni.  
Sen ko'z - ko'zlagan borliklar soxta,  
Menda qolib ketgan uzikning ko'zi...  
Bitta sir beraymi?!  
Qulog'ingni tut:  
Bo'g'zimga tiqilib qolgan u qasam.  
Shunga yashayapman  
Sababsiz kutib,  
Shunga har so'zimda qandaydir borsan.

\*\*\*

Tashqarida qolmagan kirlar,  
Dor osilgan ayvon ham ochiq.  
Ukam, singlim, ayamlar birga,  
Panalaydi yomg'irdan qochib.

Televizorda hinducha serial,  
Ichkarida g'alati sabr.  
Ko'nikishga majbur bir moral,  
Yomg'irladi otamning qabri.

Qayrag'och tagida do'mpaygan tuproq,  
Avvalgi daraxtlar yo'qdir atrofda.  
Ko'priordan naryog'i changigan, qurg'oq,  
Yomg'ir yog'ayapti bizlar tarafga!

Kuzlab borolmadim men sizni hamon,  
Yutina olmayman achiydi bo'g'zim.  
Yomg'irda shamollab qolmang,  
Otajon!  
Tashqarida qoldi...  
Mening yolg'izim!

\*\*\*

Inqilobda tarixiy davrim,  
Kallasidan ayrilgan dono.  
Yuragimga butkul evrildim,  
Sen deguncha bo'larman barpo!

Tosh davridan qolganmi qalbing,  
Tabiatan o'xshaysan menga.  
Maymunsifat odamlar kului,  
Zamon qotil qo'lladi nega?!

Men malika bo'lganman desam,  
Ishonmaysan, ona davrida.  
Sen ko'nglimni ovlab so'ng qaytsang,  
Almashmasdim qolgan bariga!

Tosh davridan - yomon sevganman,  
Milloddan ham ancha narida.  
Bir zamonlar senla o'lganman,  
Muhabbatning jangohlarida!

\*\*\*

Alisher,  
Ko'p o'ylab jim yashayapman.  
Nima deyishga ham hayronman rosti.  
Balki haddan ortiq tund yashayapman,  
Bilaman, Siz menden omadli, do'stim.

Vada qilganimdek yozyapman mana,  
Qashqar rubobiga jo'r ovoz bilan.  
Siz yashang!  
Eng baland  
Hamda hokisor!  
G'oliblik, qolibi zo'r andoz bilan.

Sizga baxt eshigi poyandoz solsin,  
Goho ogoh bo'ling, jo'rovoslarga.  
Agar hamma sizni tark etganda ham  
Yuragingiz siz bilan qolsin!

\*\*\*

Qarsillaydi childirma,  
Qarsillar yurak yonib.  
Do'st- dushmanga bildirma,  
Bevafo ketsa tonib.

Bittasin deb naydayin,  
Nola qilib yurgandim.  
Qarsillab yondirishni,  
Childirmadan o'rgandim.

Childirma mardlarniki,  
Dil yonmasa qo'l urma.  
Bisoti dardlarniki,  
Tushunmasang hol so'rma.

"Tilla sandiq" 2007

\*\*\*

Jo'yalardan toshdi ekkanim bari,  
Qatorga sig'mayin bo'zlaydi so'zim.  
Qo'lllarim qon to'kdi yozganim sari,  
O'pkamga yopishib ividi ko'zim.

Men nima deyapman o'zimdan ortib,  
Orqamda ko'z yumib o'tgan ozorlar.  
Bir kun alam ursa yuzimga tortib,  
Ko'zim bo'yaldoqdan bo'lsa bezorlar.

Bir qalqib,  
Yo Hu deb!  
Oyoqyalang, hur,  
Odamlar ichiga otsang o'yingni.  
Jovdirab qaragan qarochiqlardir,  
O'lchamin bilmasmi ular bo'yingni?!

Ranglar yarasharmi siniq tirnoqqa,  
Yolg'on o'rinnimi, yo'l olsang dilga.  
Men qanday yashardim Xalqdan yiroqda,  
Qiymat qarshisida qolib bir pulga.

Jo'yaksiz ekilgan tog' gullariday,  
Ovozimga sig'mas Elim bor mening.  
Shu har bir ko'ngilda changlangan gulday,  
Biroz g'o'r, yavvoyi fe'lim bor mening!

\*\*\*

Mendan nima so'raysan sen,  
Tila, nima tilaging! -demaysan-aaa, ketayotgan  
Umrimning bir bahori.  
Kelmanydimi mening ham bir  
Belanchaklar belagim,  
Devorlarim suyib - suyab,  
Qolsa ishqning ohori.  
So'ramaysan, tiling bormi?!

Demaysanmi haqqing bor.  
Men aytyapman, ishon va kut,  
Demaysanmi baxting bor!  
Gulli gulli ro'mol o'rav,  
Olib ketsa boshimni,  
Erkalanib yig'lavorsam,  
artib qo'ysa yoshimni.  
Ketayotgan umrim mening  
Xatolarda qorilgan,  
Ishq izidan chopaman deb  
Peshonasi yorilgan.  
Qayda qoldi eski esi  
Kirdi- chiqdi qizgina  
Qayrilib boq, ko'pdan dadil  
Yolg'iz - yolg'iz izgina!  
Xayrlashib ketar chog'ing,  
Toqatingni tashlab ket  
Mendan rozi bo'lsang agar  
Odil yo'llar boshlab ket.  
Eng avvalo Ayanga bor,  
Qo'llaridan o'pib qo'y.  
Mening dardim chuqur qilgan  
Yo'llaridan o'pib qo'y.  
Hisob - kitob qilamiz-mi,  
Menda qancha haqqing bor.  
Birga qilgan yo'limizni,  
O'rtamizda Robbim bor.  
Oppoq ranglar tila so'ngra,  
Men roziman,  
Xushcha qol.  
Yo'lim uzuuuuun,  
Borar o'rlab,  
Umrima,  
Umri halol!

\*\*\*

Huddi qachonlardir kechgan bu kunlar,  
Ba'zan bo'ladiku ruhiy bir holat.  
Voqeylik xotirga tanishdek imlar,  
Balki tanish kulgu,  
Tanish jarohat.

Taqriban,  
Sen meni sevganing kabi,  
Shunday tuyulgandir menga bilmadim.  
Keyin biroz yetmas, mehrning jami,  
Keyin ko'ngilginang biroz to'ljadi.

Bo'ladiku, bu hol, nogoh uyonomoq,  
Yaxshiyam tush ekan deymiz so'ngida.  
Baribiram go'zal juda suyunmoq,  
Qiymat qancha bo'lsa - bo'lsin so'ngida.

(Shoshmang, taxmin qilmay turing aytaman,  
Men yana g'am yozdim, balki she'r emas.  
Bu ko'nglimning to'kkан shirin yoshlari,  
Adabiyotshunos to'kkан biror ter emas.)

Baribiram go'zal, men bilan birga,  
Masofalar nima, yaqin dillarim.  
Mag'rur, bu olamda chang artib yurgan,  
Otamni sog'inib kechgan kunlarim.

Menga nimalardir qaytariq kabi,  
Bitta taxallusli qiyofalar ko'p.  
Isimsiz tanishlar siyrakdir ja'mi,  
O'zingni eslatmay yuraverma, xop?!

\*\*\*

Uxla ruhimdagি qochoq kelinchak,  
Uxlab orom olgin, tush ko'r baxtingni.  
Uxla yostig'ingga aytib ber ertak  
Xato qilmaganingni.

Ayt, komil ishonchga hammasini ayt,  
Sen yanglish sevmading, yolg'on sevmading.  
Shunchaki yuraging chopmagan bilan  
O'ynaging kelmadi.

Anoyi ham emas, go'l ham emassan,  
G'irrom taraflarga tupurding, tamom.  
Yolg'on qo'shilman suprangga, halos  
Unsumingda makr kamrog'i ayon.

Uxla, uyquyingni buzmasin hadik,  
Qo'rqma har hurgandan, kulganidan ham.  
Biz muhabbat dedik,  
Biz sevgan edik,  
Biz ko'ngli bahorsiz o'tmaganlardan!

\*\*\*

Bilmadim yo o'sdim, yo  
Hamon mungman  
Ichimda rohat bor,  
Havasdan ham ko'p  
Men ham shu tuproqlik  
Muborak changman  
Ko'ksimdan o'ssa bas  
Maysa yoki cho'p.

Bilmadim oxirmi, avvalmi hozir  
Qaysi palladaman,  
Qaysi hukumda.  
Sen nima desang de  
Men rozi,  
Rozi,  
Faqat qo'shib yubor Rahmat  
Yukimga

Bilmadim nimani aytgani keldim  
Yo senga aytgani qaysi iqrorni  
Qaysi yanglishimdan qaytgani keldim  
Sinovda sindirma Umri barorni!

Bildim aqlim bilan yurak tutashdir  
Rishtagoh ustada topdim hotirjam  
Endi u kungacha mushtoq kutishdir  
Dunyoni dunyoga qaytarib beg'am!

\*\*\*

Panaladi barcha gunohlar  
Jasorat bo'shalib ketdi qaydandir  
Tizzamni yirtiq deb kulayotgandi  
Ishtoni yo'q maynalar!

Pechak bosgan bog'ga boqmayman  
Maymunlardan tuzma tavoze  
Bilaman, men senga yoqmayman  
Men rozi!

Asfaltlangan mayitlar uzro  
Biz uchmoqdan mahrum ruh, qotil  
Sen bunchalar go'zal mahluqo  
Va shunchalar buyuk havotir

Jismim uzra qochadi bir his  
Jigarimni tishlar qumursqa  
Tark etaman labingni holsiz  
Baxt juda qisqa!

Tishla tiling, yum,  
og'zingni yum  
Ichingga yut, ichingdagini  
So'z aytmagin to'tilar uchun  
Ko'rma, g'amning archilganini!

\*\*\*

Juda uzoqlarda ko'zlarim,  
Kelajagim qolib bu yerda.  
Balki biror insof qolmadi  
Men ko'rman!

Dastimda hayajon tutgan supurgi  
Timmay chang artaman,  
Esni yuvar tin.  
Men har kun,  
Har kuni  
Keladi ko'rgim.  
Bilmay yodim kelsa...  
yodingga bir kun!

Sovib borar tillarim hatto  
Dunyo demoq eng tuzsiz mantiq  
Agar bunda eng to'g'ri xato  
Qolganlari ol, senga tortiq

Men mammunman, ko'rman, tushungin  
Ko'z yumgani ko'z qani, axmoq  
Allaqachon ko'nglimga ko'mdim,  
Ko'ksim to'la momaqaldiroq.

\*\*\*

Odamlar chin dildan qarg'aydi  
Haqqi yo'q bo'lsalar ham  
Yolg'ondan so'zlaydi  
Shirin  
Va go'zal.  
Juda tez unutib yuborar... beg'am.

Mana masalan bugun metroda,  
Majburan joy taklif qildingiz ko'p bor.  
Yolg'ondan tabassum qilayotgandi  
Qarshingizda turgan anavi ayol.

Hamma joyda rang bor!  
Turli!  
Va tuman!  
Yashil, sariq, kulrang, qizil, moviy, oq.  
Samiymiyat rangin ahtarib qarang,  
Muhabbatning rangi bo'ladi qandoq?!

\*\*\*

Miyyam orqa tarafida qumsoq!  
Onam!  
Dam oladi Sizni o'ylab charchoqlarim.  
Yuragimda Cho'li iroq liq paymonam,  
Hur - hurlaydi  
Quchoqlarim - puchoqlarim!

Ko'zim kulta, umid mahkam bo'ldi hardam,  
Yelkamda qo'sh qo'shayotir  
Ikki malak.  
Duo qilish baxt ekan-ku endi bilsam,  
Kaftim hirmon uzra to'lg'in savob talab.

Nafsim chala, o'lmoqqa shay, yuzga urgan,  
Onam!  
Sizni yod etaman har toatda.  
Oq ro'molda, qora toshga egik ko'rsam...  
Orzum! Bizni loyiq ko'rsa... ibodatga!

\*\*\*

Yelkangiz bormikan boshlarim uchun.  
Tutib qololsaydi og'ir boshimni.  
Biror kun alamlar olmasdan o'chin.  
Yashirib qo'ysangiz, yoshimni.

Men qo'ymasangiz o'zmga, sizdan -  
Boshqa hayollaga ketib qolmasam.  
Jim bo'lib qolsangiz, bexosdan.  
Kutgan paytingizda o'lmasam.

Raxmat aytaversam qiyomatgacha,  
Meni qul qilsangiz egamga.  
Sizga bandi bo'lsam,qiyomatgacha.  
Dunyoga siz uchun kelganman.

25.08.2014

\*\*\*

Bilar edim avvalgi seni,  
Bilmam...  
bugun neni xushlading.  
Yo'llaringni to'sa olmagan,  
Sochlarimni kesib tashladim.

Do'st bo'lmadi umrim o'zimga,  
Sirim sotib maqtandi ko'nglim.  
Men hammadan olis, ko'zimdan,  
Nurim olgan sevgimga ko'ndim...

Kalta sochim hamon ösmadi,  
Yo'llar o'sar, oralar o'sar...  
Hech kim qanotingni kesmadi,  
Men ham uchdim, begona, esar...  
Qaytmaydimi ketganlar?!  
Nechun?!  
Kelgan edi kech va befursat.  
Meni hamma sevganlar uchun.  
Rahmat!  
Rahmat!  
Og'riqsiz rahmat!

Dard tugamas  
Bemaqsad - bu dard,  
Yeb ham qo'ymas, unutmaydi ham,  
Ey sochlarim bunchalar nomard,  
Hamon o'sha sarhush va beg'am.

25.08.2014

\*\*\*

Ko'k darvoza - bog'hovli ko'ngli,  
Qancha izlar yetmagan ko'cha...  
Uybekaning Oybeka qizin,  
Yuragidan ketmagan ko'cha...

Va qachondir narvon qo'yib Oy,  
Derazamni chertadi nurli.  
Yuragimni kimga berding boy,  
Mag'lublarim bunchalar sirli.

Ko'kdarvoza- sendan narida,  
Havo yo'qdir, hayot ne qilsin.  
Shundoq Samarqandning bag'rida,  
Sendan aziz joy yo'q, kim bilsin.

Yashirasan kulgularingni,  
Yashirasan kuygularingni,  
Men armonni tanidim senda,  
Bilmaysan-da qayg'ularimni

Ko'kdarvoza -  
Azarang eshik,  
Bugun meni borimni eshit.  
Yuragingga qulf solmay tur,  
Yur men bilan, Osmondan oshib.

Tosh otmasin senga birovlar,  
Yuragida Meni bor makon.  
Mast emasman, sevaman halos.  
Yo'l ochmading ishqimga tomon.

Mayli sendan ginam yo'q zarra,  
Ota uyim eshigi, orim.  
Sen men uchun eng go'zal marra,  
Sensan mening mangu ahorim.

Ko'kdarvoza...

2014 yil

\*\*\*

Hammasi joyida...  
Ota uy!  
Ona vatan!  
Hatto xonamdagи shkaf o'rnida...  
Uchib ketolmagan mening gilamim!  
Otam choy ichyapti... o'sha so'rida.

Hatto rayxonlar ham ötgan yilgidek,  
Ochilay deyapti sentiyabrgul.  
Vaqt go'yo qismatga ko'ngulik,  
Qachon ochar ekan menga yangi yol!!!

2014 yil

\*\*\*

Olmalarining ol yuzlaridan,  
O'pib to'ymas Avgust shamoli.  
Uyalibmi, uzilib tushar,  
Otam ekan olma, hayoli...

Ey haddidan oshgan oshiq Yel,  
Nimagadur buncha g'uborsan.  
G'irrom bo'lma,  
Arazlama,  
Kel,  
Men bilmayin ket deb yuborsam!

Alam qilmas edi avvallar,  
Sochlarimni to'zg'itib ketsang.  
Etagimdan tortib, amallab  
Lablarimga qulog'ing tutsang.

Endi biroz yarashmas  
g'amlar,  
Yashirsam ham qalqadi ko'zda,  
Otam ekkan olmalar bilan,  
To'p-to'p to'kib yubording, Kuzda...

2014 yil

\*\*\*

Hirot!

Tamshanadi to mog'i qurib,  
Chanqab borayotir yuragim manim.  
Seni o'lgunimcha qolsaydim ko'rib,  
Ruximdan uzoqda ovvor tanim.

Hirot!

tuprog'ingday tepkilandim men,  
Jonimni bermasdan, quzg'unlar cho'qir,  
Yomg'ir bo'l maysamni, nega Osiyo?????  
Nega tiling soqov, ko'z laring so'qir,  
Nega qutqarmaysan o'zni, Osiy, O !

Hirot!

Tushlarimga kirasan sarson,  
Yaktaging sudralib, ko'z laring tinib,  
Axir yosholmayman, Navoiy haqqi,  
Sening taqdiringga begona bo'lib!

\*\*\*

Favvoralar kular,  
ko'klarga sachrab -  
Shaxarning erkatoy bolalariday.  
Hozir qolgudayin omadga uchrab,  
To'qilasan hayot tolalarida...

Yorug' oqshonlarda bastalanib tong,  
Kunduz ko'zlariga yoziladi kuy.  
O'ttiz milyondan ko'p yurak ursa bong,  
O'zbekka hamisha yarashadi to'y.

Baxtimdan - baxtliroq  
bitta shu sabab,  
Ayam o'rgatgan she'r yodimga keldi.  
Eng buyuk umr jam - Vatanga atab,  
Eng muhim quvonchim, Vatandir,  
bildim!!!!

08.08.2014

\*\*\*

Yozning yelkasini kuydirar oftob,  
Shaxarning bag'rida pishmoqda umr.  
Qovragan ko'nglimga yomg'irlar tilab,  
Meni sog'inadi,qaydadir-kimdir...

Tonglarning ismini Nafisa qo'yib,  
Nafas ham olmayin suyadi hayot.  
Mening eski ko'nglim ketyapti kuyib.  
Mening yangi dardim o'ljadi hayhot

Yozning yelkasini kuydirar oftob,  
Shaxar, tandirida pishmoqda umrim.  
Lekin qayerdadir,seni ham shu tob,  
Balki tushlarimda, keladi ko'rgim...

08.07.2014

\*\*\*

Artofimda lim-lim qadahlar,  
O'kinch to'la mening jomimga.  
Men yulinib olib qadalgan,  
Yoqangdagi gulday... nomiga...

Qarg'aysan sen bilaman hamon,  
"Qochib ketding!  
Yer yutsin" -deya!  
"Sevolmading!" "Inkording boshdan,"  
Demassan-ki,  
"Bechora!"  
"Kuyuk!"

Ana ko'rki etakdan sudrab-  
Barmog'ingning dog'lari og'ir.  
Parchalangan kishaning mudrab,  
Izlaridan zirqirar sag'ir.

Uzilgan gul kimga ham kerak,  
Otilgan o'q manzilsiz daydi.  
Kipriklarim o'zimdan hurkak,  
Bilmam nega!  
Bilmayman qaydan!

Har daqiqa gumondor qo'rqinch!  
Chekkalarga boshlaydi nedir.  
Bisotimdan ochiqqan o'kinch,  
Qachon bitar ekan bu kunlar!

Aytayapman ich- ichimdan bil,  
Sen ham tushun meni ne bo'lar?!

Iloho sev boshqani!  
Sevil,  
Yarim qolgan yuraging to'lar!

Achinaman bo'lmasam juda,  
Nomard qolsang erkak boshingga.  
Men yarador yurak-la shunday,  
Gullar otay otgan toshingga!

Atrofimda lim...  
Lim dudoqlar!  
Baxt so'zlanar, quvonch so'zlanar.  
Men ichimni ichimda saqlab,  
Sir simirib sassiz bo'zladim!

\*\*\*

Afg'on qirlarida lolalar horg'in,  
Afg'onda o't olar faslsiz gullar.  
Yomg'ir bo'lomasang kimsan,  
Ey Osmon,  
Nahot kuyib o'lar zabonsiz tillar!

Oyning ranglarini bo'yaydi hadik,  
Quyoshning yuziga o'q otma endi,  
Axr yarim asr o'z jigrimning  
Xasta yuragiga qarolar qo'ndi.

Afg'on!!!!

\*\*\*

Hira lampochkaga urilar pashsha,  
Xavo yutolmaydi faqat o'zini,  
Hovurin bosmagan tomlarni oshib,  
Yulduzlar qisadi ko'zini,

Behol tebranadi beshik, yonida,  
Ayol bolasiga aytmoqda qo'shiq,  
Oromdek singadi go'dak joniga  
Allaga o'xshagan orzular qo'shib,

Qulog'i yo'qmidi tosh devorlarni,  
Nega anglamaydi bo'lmasa bu tun.  
Yelkasiga osib gung so'rovlarni  
Ayol yonolmayin bo'ladi tutun!!!

2014 yil

\*\*\*

Bir kuni o'ngidan keladi tushlar,  
Bir kun yalmog'izlar ketadi hushdan.  
Bir kun tugab qolar hamma tashvishlar,  
Keyin nima qilamiz?!

Agar har tilakka qo'l ochsa malak,  
Agar har so'qmoqqa yo'l ochsa tilak.  
Agar kerak bo'lmay qolganda kerak,  
Keyin nima qilamiz?!

Umr uzun bo'lsa tugamasa hech,  
Umr to'lg'in bo'lsa baxtga erta- kech.  
Hayotdan zerikib ketmasmidik hech?!

Keyin... qanday qilamiz?!

Masalan, sog'inmay turib ko'rishsang,  
Hamma - hamma ishing birdan yurishsa.  
Kelmasdan eshiklar ochiq turishsa,  
Zerikkandan o'lamiz!

\*\*\*

Yoshim oqib ketdi bilmasdan, Ota,  
Dimog' im achidi,  
Yurak sanchidi.  
Yuribman!  
Har galgi ertakni o'qib,  
Biroq qahramonsiz qolgan  
Aaaaanchadan...

Haligi masala, haliyam o'sha...  
Ammo siz ishoning, bir kun o'xshaydi.  
Ukam kasal bo'lib qoldi - tuzaldi,  
Dildoraning bo'yi yanam uzaldi.

Ota!  
Havotirga o'rin yo'q asli,  
Men polvon o'g'londek qizingizmanku.  
Bosgan qadamlarim yashashga qastdir.  
Aytganingiz kabi  
"o'zingiz"man-ku!

Hech kim ko'rgani yo'q yig'laganimni,  
Bitta Xudo bilan Siz guvoh xolos.  
Bilasiz sog'inib uxlaganimni,  
Bilaman, ohu- voh ojizlarga hos.

Sog'inyapman Sizli uyni, Vatanni,  
Hatto koyishingiz,  
Qattiq qo'llligim.  
Yarim yuragimga bosib bir kamni,  
Ba'zan tutib ketar o'sha go'llligim.

\*\*\*

Men senga kerakman,ey, olıyjanob,  
Olis - olislarda qolgan orzuyim.  
Nega sen haqqıngni qilmaysan talab,  
Yuragimni bayroq qilsang arziydi.

Qadamlar zavqida aylanadi yer,  
Yuraklar shavqidan yosharar hayhot.  
Murg ‘akkina bag’rim osmon bo’lsam der,  
Toki olislarda borsan,barhayot.  
Maftuna bo’ladi tilaklarimga,  
Hali uyqusida yotgan koinot.  
Gullar o’zin taqar etaklarimga,  
Meni sevib qolgan qaytadan Hayot!  
Navbat kutayotir baxtga chayinib,  
Samiymiy, yuragi toza - kulgular.  
Yetar, mendan yiroq yurma koyinib,  
Oyning qorong’usi o’n besh kun bo’lar.  
Men senga kerakman ey, olıyjanob,  
Olis-olislarda qolgan orzuyim.  
Nega sen haqqıngni qilmaysan talab,  
Yuragingni bayroq qilsang arziydi.

2014

\*\*\*

Men g'amgin emasman, bu suhbat aro,  
Siniq nigohlarim shunchaki o'ychan.  
Unga aytolmayman, ko'nglimni yorib,  
Kiprigim to'kilib borar sog'inchdan.  
Balki xunob qildim, o'zimdan so'zlab,  
Aylanib o'zimga qaytaveraman.  
Oxir kelmaguncha shodliklar izlab,  
U haqda qo'shiqlar aytaveraman.  
Men g'amgin emasman,  
Quvonchman, baxtman.  
Sodiqman begona bo'lgan odamga.  
Umrimga aylanib bormoqda, - ahdim,  
Umr - aylanmoqda yolg'iz - yodimga!!!!

09.07.2014

\*\*\*

Kengliklarga zoriqdimey, kengliklarga,  
Bezdim boshga olaverib huzunlarni.  
Ba'zan o'lchov birligi yo'q tengliklarga,  
Teng qilmadim sizdan bo'yi uzunlarni.

Bolalikda so'ridan bir qo'lim cho'zsam,  
Uzumlarga yetsa deya tilar edim.  
Bir kun ishkom qolib, yulduzlardan o'zsam...  
Shuncha olisliging qaydan bilar edim!

Yoz oqshomi yulduz uchsa niyyat qilib,  
Muzqaymoqlar so'rар edim har kun ko'plab,  
Balki shular tuyulardi orzu bo'lib,  
Balki hisobimda bitdi hamma to'plam.

Katta hovli  
Katta shahar  
Katta dunyo -  
Kichchik juda  
Otam ekkан uzumlardan,  
Tilaklar ko'p, odamlarda ozdir parvo,  
Mening qo'lim emas, ko'nglim  
Uzilgandir.

### *Singlimga maktub*

Shafaq va ufuqning rangi aynidir,  
Achchiq qora choyning damiday taskin.  
Odamzod shu bir xil rangning payida,  
Ba'zan baxtning sharti shunchalar keskin.

Jimsan.

Beparvosan. Ichingda bari,  
To'lqinlanar goho ko'zing- da sohil.  
Men seni shunchalar ayagan sari,  
O'rtaqa erkalik qilmoqda dahil.

Bilaman men seni,  
O'jarim meni,  
Lekin tanimaysan hali hammani.  
Qanday shodlangandim tug'ilgan kuning,  
Sen menga shodlikdar berarsan... ya'ni.

Mana uzoqlarda uzmay umidni,  
Yaqinlarim uchun joni halakman.  
Bir kuni anglaysan o'zing ham buni,  
Men senga baxt bosib o'tgan yo'lakman.

Omon bo'l goh shod-u, gohida g'amgin,  
Esla aytgandimku avval ham ko'p bor.  
Iltimos!  
Onamni asragin!  
Shunda hech kim senga berolmas ozor.

Shafaq choy quyilgan piyoladay va  
Mening yuragim mung,  
Yelkamda yukim.  
Hozir cho'kar edim Ufq chorlasa...  
Ammo yashayapa ishon siz uchun!

\*\*\*

Yuzga kirmasa ham bir kuni shunday,  
Xudo,  
raxmatingga yetolsin har kim.  
Qarzsiz, sunnati-yu farzi butunlay,  
Hisobi og'rinmay kelsin o'sha kun.

Orqada qolganlar muxabbat bo'lsin,  
Nur bo'lsin oldinda, oppoq libosda.  
Nomingga yog'ilgan duolar kulsin,  
Faqat savob to'lsin so'ng iqtibosga.

Rozi bo'lsin hayot, omonat umring,  
Ikkilanmay sevsin seni yaxshilar.  
Raxmat yomg'irlari bossin hovringni,  
Chizgilaring qolsin qo'shiqqa o'xshagan.

Bir yutum  
Bir tytam  
Bir nafasgina  
Bo'lsa ham hammasi agar.  
Butun bir umr ham arzimasgina,  
Ba'zan bir raxmatga arzimay qolar.

\*\*\*

Bugun ko'p ishladim har kungidan ham,  
Terlab, holdan toyib,  
Yulqinib, yonib.  
Men kattarib ketdim Sizdan so'ng,  
birdan...  
Ota!  
Ketdingizmi menga ishonib?!

O'yladim anavi o'tgan kunimni,  
Sarson so'qoqlarga botgan kunimni.  
Sizniyam unutib qo'yib gohida,  
Yuragimni yulib otgan kunimni.

Oshiqdim,  
Tutilib quvg'in kuniyam,  
Sevdim - sevilmadim balki, bilmasam.  
Siz rozi bo'lsangiz qani ediya,  
Baxtga yetarmanmi menam, o'lmasdan.

Tangacha qadrga musht tutdim qotib,  
Mehr ko'chasida mehribon Otam.  
Sizga o'xshamagan - diydasi qattiq,  
Men endi o'zimni kim deya atay?!

Agar hammasiga sig'saydi yurak,  
Ayta olsam edi hamma gapimni.  
Dunyoda shoh asar bo'lmasa kerak,  
Borimni anglatgan kitob-  
Otamday!

So'nggi nafasniyam sarflab ismimga,  
O'ylanma deysiz-a, meni o'ylab siz.  
Qaysi osmonlarni bosay ko'ksimga,  
Quvonib bo'larmi yurakdan, yolg'iz.

Bugun ko'p ishladim har kungidan ham,  
Horib duo qildim yemakdan so'ng shu.  
Onamning baxtiga sog'aysin Otam,  
Bu duo o'n bir yildan buyon har kungi.

\*\*\*

Odamlar bor, uzoqlarda  
Hammagini gapirmasdan anglaydigan.  
Shunday yaqin!  
Odamlar bor yonginagda, nafasingday  
O'lib ketar... tanishmayin...  
Imkon qadar jilmayasan,  
Noshukurlik etmay deysan.  
Yuragingni bersang shunday  
Yulqib, otib ketmaydigan  
Hamma oqil  
Hamma dono  
Hammo a'lo  
Hamma tanho  
O'zlaricha!  
Haqqim yo'qli,  
mehr tortiq!  
Sotmaydigan!  
Sotmaydigan!

Birovlar bor uzoq balki  
Yaqingdagi yotdan yaqin  
Huddi avval ko'rgandaysan,  
Kunduzlari chiroq yoqib...

\*\*\*

Bu dunyoda bitta qo'shiq bor,  
Balki bordir u dunyoda ham.  
Ko'zlaringga yozilgan ashor,  
Ko'zlarimga yuqtiradi nam.

Kulmoq mumkin shirin va kinsiz,  
Qitiqlanmas hech kimsa lekin.  
Baqirmaqlik mumkindir unsiz,  
Chaqirmaqlik mumkin-ku unsiz.

Bir jingalak sochli qizaloq,  
Kamshik, maktab yoshi boladay.  
Yo, beozor mitti chaqaloq,  
Egasiga yetgan noladay.

Shunday qo'shiq!  
Bastakori siz,  
Ruku etar yurakda ritm.  
Eshitasiz, qulochinchilarsiz,  
Eshitasiz osmon kuylar jiiiim!

\*\*\*

Qaydasan "boshida shoxi" bor odam,  
Orazida nurli Mohi bor odam.  
Men boshimda boshlab borsam osmonni  
Yelkasiga cho'ksam - tog'i bor odam.

Ey, sabri toshmagur paymonasidan,  
Ismimni silagan peshonasida.  
Ikkita dunyoning savobin tilab,  
Qibлага egilsam ostonasida!

Men sanab tugatsam sitamlarimni,  
U kelib aytarmi kutganlarini?!  
Sezmasak, ko'rmasak, bilmasak birga,  
Ko'ngilning kemtigi va kamlarini!

Otamga o'xshagan do'st bo'lsa menga,  
Onasiga o'xshash besabab bo'lsam.  
Yuragimda jannat qurardim unga,  
Yuzgacha sanasam...  
Ungacha kelsa... !!!

## *Charchash*

Ko'zingga tushadi nimjon sochlaring,  
Hammasini tutib tutamlab,  
Bog'lab qo'yolmaysan boshingga  
Ular kalta,  
Qo'llaring charchoq...  
Asablaring esa qolmagan.  
O'tib ketadi deydi odamlar  
Tupurdim hammasiga  
Ular bilan birga o'tish osonmi?!  
Qolaversa qadami og'ir  
Yelkasi o'yilgan yo'llaring charchoq!

-Kuyinma, arzimas, deydi dugonam  
Bir paytlargi dugonam haqda  
Menga bari - yangi begona  
Yangi- yangi hangoma chiqar  
O'ngda!  
Madoringni chaynab o'ynashga!  
Yuragingni qiynab o'ylashga!

Maoshdan - maoshgacha  
Ishxonadan - ijara uyingga,  
Ufqdandan - shafaqqacha  
Dilingdan - tilinggacha  
Charchoq!

Eshikni yopasan orqadan  
Yolg'iz qolasan biiir o'zing va  
Haqiyqiy do'sting!  
Ko'zingdan dumalab ketadi bari  
Silkitib - silkitib qoqadi hasrat  
O'ksinib- o'ksinib duo etasan  
Charchoqlar chiqadi barmoqlaringdan

Joynamozning bir chekkasiga boshing tegib uxlab qolasan  
Sen charchab ham yashay olasan!

\*\*\*

Qayradim zang bosgan pichoqlarimni,  
Senga hayolingni o'yib beray deb.  
Charxladim quyoshning nurin qayirib,  
Seni o'z holingga qo'yib beray deb.  
Ichimda rostlandi ruhimning qaddi,  
Tilimda charxladim qanotlarini.  
Bahonalar qilding!  
Barisi moddiy!  
Barisi o'ksitdi sabotlarimni!

Pichirlab uqtirdim iymonga sura,  
Alal haq sabrimda gul ochdi anjir.  
Hu dedim ko'ngilga mehroblar qurib!  
Alif dedi kalomim,  
bu balki ajr!

Qayradim boshimni xatlaring bilan,  
Bunda yo'llarimiz chizilgan ochiq.  
Faqqat ichimizda birovlar o'lgan,  
Faqqat kimlargadir  
Ko'zimiz yopiq...

\*\*\*

Men hayollar surib charchamas,  
Men orzuga ot qo'yan ovoz.  
Isming bilan tirik har nafas,  
Isming bilan qilaman pardoz!

Sen oqillik qilib charchagan,  
Sen boridan boshqaroq odam.  
Ismin olib qasam ichdigu,  
Ismim eslab ingragan ovoz.

Biz tobora uzoq, va yaqin,  
Biz tobora uzilgan rishta.  
Barmog'iga nishonlar taqib,  
Yolg'iz qolib o'ylashga tashna...

Omon bo'lzin - oradagilar,  
Baxtli bo'lzin ular mayliga.  
Biz ko'nmadik, biz eplolmadik,  
Ko'nmadik-ku ko'ngil mayliga!

Qushday yengil,  
Ozorli ruxim,  
Sen ham bejo, ammo bilinmas,  
Biz ham baxtli bo'lamiz lekin,  
Kutmoq lozim,  
Kutmoq!  
Bugunmas...

\*\*\*

Qoravoy, yuragi oq,  
Fe'li og'ir sal chatoq.  
Menga kelsa g'irromroq,  
Odamni bilmaysizmi???  
Ha ozroq parishonman,  
Yo'qotib qo'ydim uni.  
Axir vada bergandim,  
Buzildi to'yim kuni.  
Alam nima aytaymi,  
Yig'lolmagan biladi.  
Butun umr tush ko'rib,  
Uxlolmagan biladi.  
U aytganday yolg'onchi,  
Yalmog'iz ham emasman.  
Taqdirimni bilganda  
Bu yerlarga kelmasdim.  
Balki rostdir, xatodir,  
Men, Men bo'lib o'taman,  
Agar ko'rsangiz aytинг,  
Men baribir kutaman...

\*\*\*

Astaroq gapiring,  
Tezroq seving, men shoshilyapman,  
Bugunim ham tugab qoldiku axir,  
Yig'lamang.  
Judayam yomon ko'raman.  
Men, ko'z yosh tamini bilaman -  
Taxir.  
Befayz suxbatlardan ko'ngilni ayang, Mazasi bo'lmaydi -  
Quyoshsiz baxtni,  
Men mavridini topsam yana kelaman.  
Hozr esa juda kam vaqtim.  
Arzing, har bir mehrim  
Xudoning sehri,  
Meni isrof qilmay yeb qo'yisin,  
Yuragingizga ayting.  
Yamlangan yemakni it ham yemaydi,  
Rizqingizni tashlab ketmang, iltimos,  
Sizga gunoh bo'lgim kelmaydi...

12.03.2014

\*\*\*

Azroyil!  
Kel do'st bo'lamiz.  
Bir senga ishonaman!  
Xizmatdan tashqari paytlaring kel.  
Kofe ichamiz birga,  
Va dardlashamiz...

Baribir senga aytaman-ku  
hammasin bir kun.  
Meni rostliklarga o'zing eltasan.  
Qandax maqom bergen senga Yaratgan!!!

Qanday motam bergen menga Yaratgan!!!  
Azroyil - jonimga sodig'im,  
Qadirdon oshnam.  
Achchiq- achchiq kofe ichamiz,  
Joni chiqib ketayapti, kel!  
Hazillashamiz, bir o'sha bilan,  
Kulaverib yig'lab yubordim.  
Hiqqillaydi yuragim sabil!

Dushmanim yo'q meni  
o'zimdan boshqa,  
Bilmay aytib qo'ygan  
so'zimdan boshqa.  
Kel aytib beraman bugun o'zimni,  
Birma- bir, ming bitta o'zimdan boshlab!!!

12.03.2014

\*\*\*

Quvonib qo'shiqlar aytaveraman,  
Bazan mahoratga sig'mas yuragim.  
Bahorda ko'nglingga qaytaveraman,  
Bahor ishq fasli!

Aslida Qishda ham yog'adi yomg'ir,  
Entikib ketasan Aprelda yog'sa.  
Eslab jilmaysan, beo'rin og'rib,  
Shalobbada qolgan sochlarim yig'sam!

Bulvar ko'chasida o'quvchi umrim,  
Jim- jimasiz mehr, majbursiz salom.  
Meni yuragingga manguga ko'mdi,  
So'ng yillar...armon!

Eh u o'tgan kunlar, bolalik, o'tday,  
Yoniq ko'zimizda hamma chiroqlar.  
Bugun ko'z o'ngimdan birma-bir o'tdi,  
Yo ketib qoldimmi shuncha yiroqlab!

Lekin yana shunday bo'lqa-da,  
Quvonib qo'shiqlar aytaveraman.  
Bahor mehr fasli!  
Muxabbat fasli!  
Bahorda yodingga qaytaveraman!

Yana qaytib kelgan qaldirg'ochlarday!

\*\*\*

Mo'ralashib havasmand hislar,  
O'n oltida shakl olgan tong.  
Etaklari olma gul islar,  
Hayollari qilar to'palon!

Qayga qochar zulflar qiqirlab,  
Baqbaqada momo ko'zmunchoq.  
Bir varag'i milyon o'qilgan  
go'zal kitob!  
Muqovasi oq!

Sirlashgani qo'g'irchoqlarin,  
Tanlamagan ilk vafosizlik.  
Chaqirsa eshitmas chog'larni,  
Quloqlarning boshi o'tkazdi.

Go'zallahshar boshqacha bari,  
Avvallari tanimsiz tushlar.  
Eltmoq istar Bahorlar sari  
Yoz dardida mavsumsiz qushlar.

Dunyodagi bitta rost yolg'on,  
Muhabbatga nomdor vatandosh.  
Ko'nglingizda manguga qolgan,  
Aqli ozroq  
Uuuuu 16 yosh!

\*\*\*

Erka vujud, jumbushli junun!  
Ishq mohitob tikilgan ro'mol.  
Chiroylisan nimalar uchun,  
Nima uchun bu xusun, jamol?!

Oq parvarda, tatilmagan qand,  
Silliqlangan ifoda uzor.  
Anorlarga iymanish payvand,  
Bu bog'gulin yashirar Hisor.

Surma qaro sir sotib ketar,  
Kiprig-u ko'z arolariga.  
Qosh tutashmay armonda o'tar,  
Muhabbatning adolarida.

Dudoqlarda qirmizi ta'qiq,  
Ichkarida durlar yashirin.  
Undan nari Ajdaho to'siq,  
Har bir so'zi halvo pishirar.

Otsiz hali bundan buyog'i,  
Jannatgacha yo'l bor shu yerdan.  
Halokatga otgich qiynog'i.  
Tirik saqlar o'ldirib har dam.

Shunday nozik,  
Shunday diliston,  
Shunday sayqal suvgaga chizgulik.  
Bu bir manzil.  
Tashi zimiston,  
Ichkarida buyuk ezgulik!

## Buvamga maktub

Qo'rqmas qizing bor ediku,  
Orzu degan!  
Uning qizi ham bor edi undan battar  
Qo'rqlaygan,  
Qo'rqlay! Ular sog' - salomat!  
Haligacha o'ljadi!  
Yengilmadi! Yengilmashdi!  
Oti harob bo'ljadi!  
Tishi sindi, rangi so'ndi  
Oqlar biroz sarg'aydi.  
Ammo qora qarg'alar ko'p,  
O'zin bilmay qarg'aydi!  
Buva o'zing bilasan-ku,  
Orzularning fe'lini,  
Qatib mingta Kuz kelsa ham  
Bermas ko'ngil gulini!  
Eslamayin ketdi dema,  
Yurak har kun yo'qlaydi.  
Sen Onamning otasigan,  
Bizni Xudo saqlaydi!

Buva juda uzoqlardan  
Olib keldim gapimni,  
Rostin aytasam, tuzoqlardan,  
Bezib ketib, o'ksindim!  
Mehr bilan bezatadi har kim  
Qahrin, hiylasin,  
Bilmay qoldim odamzotning  
Qanday irganch miyyasi!  
Yo'q,  
Qo'limni ko'tarmadim, paq etsa  
Har qurolga!  
Senga maktub yozay dedim,  
Yog'izlikli Orolda!  
Suyagiga tortar bir kun,  
Milyon yillik sulola,  
Mening buvam, qalbi butun!  
Halollarning haloli!

\*\*\*

Hech kim qolmay boshlaydi,  
Mendan qochdi hatto Qish.  
Ruxim qanotlari ho'l, ko'zлari qon,  
Yara qush!  
Hech kim qolmay boshladи,  
Hatto singlim suymadi.  
Xudo, xunuklashdim yo,  
Senday hech kim suymadi.  
Beminnat!  
Rost!  
Kutimsiz!  
Gunohlarim o'timsiz.  
Izsiz!  
Ko'zsiz va so'zsiz!  
Dardim aytmay tuymadi!  
Oqshaymoqda sochlarim,  
Bir tuvofman yo besar.  
Qo'llarim - og'ochlarim,  
Yerdan ko'kargan ozor!  
Hech kim qolmay boshladи.  
Qolmadi hech bir modda!  
Ruhim anglay boshladи.  
Siyrat noma aftoda!  
Oooooroom!  
Qishki ertakda!  
Mendan qochdi hatto Qish!  
Bo'g'zimda achidi goh,  
Otam meni ko'rgan tush!  
Hech kim qolmay boshladи!  
Quvon, hujayramda g'am!  
Meni tashlab ketsangchi?  
Nega jilmaysan Osmon!

\*\*\*

Omadigni bersin iloyim,  
To'qqizinchi qavatdagi qiz.  
So'zi qattiq - ko'ngli muloyim,  
Safi buyuk, yuragi yog'iz!

Og'ir yukin tashiydi kulib,  
Tili kalta, hayoli toza.  
Tug'ilgansan qahramon bo'lib,  
Tur!  
Va yana qaddingni rostla!

To'qqizinchi qavatdagi qiz,  
Mendan uzoq!  
Xudoga yaqin!  
Ichi tutun, baxti butun qiz,  
Tezroq meni to'yingga chaqir!

To'qqizinchi qavatdagi qiz!

\*\*\*

Uzoq manzillarga ko'z tikkanmiz biz,  
Metin irodaga yuklanar sinov.  
Maqsadni mahkam tut ey bug'doyerang qiz,  
Sening yuklaringni ko'tarmas birov!

Kimdir qayt deb ko'rар,  
Kim qayтma deydi,  
Osonlar oroming bo'lmasa bo'ldi.  
Bilib qo'y qutqular hamisha daydi,  
Qancha orzularning qotili bo'ldi.

Seskanma,  
Og'rinma,  
Olg'a de! Olg'a!  
Tosh kelsa kemirgin, suv kelsa simir.  
Qo'rqqanga qo'sh bo'lar har ne hayolda,  
Qimirlagan qadam oshaverar qir!

Qo'lingni ko'ksingga bos va olg'a bos,  
Yiqilsang Yo Yer de,  
Uchsang Yo Ko'k de.  
Va Yuraging kabi tinmagin bir pas,  
O'zinggacha borgin dunyoga kelib!

Qora qiz!  
Bilaman yuraging oppoq,  
Orzularing toza, samiyiyatdan.  
Onamning qalbini qil doim bayroq,  
Otamning duosi asrar g'aflatdan!

\*\*\*

Sorig' ko'ylagida jimirladi nur,  
Ikki jag' orasi qiymalanar til.  
Bu -qanday gap bo'ldi :  
Ishqning ko'zi ko'r!  
Kuygan butog'idan bezarmi bulbul?!

Torlik qilib yonar ko'ksi yurakka,  
Ishqiboz erkaklar, ishqisiz ayollar.  
Bir kunga  
Hech qursa bir soatgina,  
Nikohsiz nigohni qolsa halollab!

Sarg'aygan sochiga zar taqib o'ynab,  
Hamyon ilinjida ilgilanganlar.  
Makrlar vaqrlab, shaqrlab qaynab,  
Ishqning tuzlig'iga ming tufurganlar.

Odatga aylanga yolg'on yonmasmi,  
Do'stman deganidan ko'rdik pastlikni.  
Barin ko'rib turgan - Yer, Osmonmasmi?!

Biz ko'rdik rostakam g'irrom astlikni!

\*\*\*

Qil ko'prikdir hayotning zavqi,  
Qachon so'ngi nafas, bilmassan.  
Yuragimda eng sahif taqvim,  
Holbuki sanog'in bilmasam.

Kiprigimda eng noz titroqlar,  
Qachon so'ngni ko'rgum, bilmasman.  
Yuragimda qolgan qo'rkoqdir,  
Yo'qsa hayotimga kelmasmi?!

Falsafadan buyukroqdir ishq,  
Mantiq ojiz ba'zan taqdirla.  
O'rtadagi huvilloq bo'shliq,  
Bu bo'shliqlar kimlarni ko'rgan?!

Nuqtasi yo'q taqriban bari,  
Uzq - yuluq ko'chrma gaplar.  
Sen, ko'nglimga cho'kkanim sari,  
Umid rangi ko'zimga toblar.

Ammo qo'rkar, yashashga qo'rkar,  
Yo'qsa tug'ilmasmi mard bo'lib.  
Ko'z yoshlari ichimga oqar,  
O'lib borar tilsiz, bo'g'ilib.

Qil ko'prikdir hayotning zavqi,  
Tushib ketar injalik tushlar.  
Yuragimda eng buyuk taqvim,  
Men Sen tomon uchyo'tgan qushman!

\*\*\*

Tomonsiz, shakilsiz qolgan har narsa,  
Ayamning ko'zidan boshqa.  
Baxorga yetganda, qattiq, Qish ursa,  
Qaysi fasl boshlar?

Aniq degan so'zdan hadik bor menda,  
Bir oylardan beri.  
Hatto ob-havo ham o'zgarar bir kunda,  
Nimagadir ko'ra!

Ammo qattiq charchab, g'am ichib -bo'kib,  
Og'zingizdan alam hidi kelib tursa ham.  
Yegan - ichganingiz lanatga to'kib,  
Xudo ursa ham -

Onangiz hech qachon tashlab ketmaydi,  
Dunyoning - rosti shu!  
Og'ritsa - og'ritar ammo botmaydi-  
Og'iring!  
Bas- ki U!

Qarzing bo'lsa eng katta qarzing,  
Farzing bo'lsa buyuk farzing bor.  
Mukofoting - onangga arzish,  
Oyog'iga tokilgan viqor!

## Maktub

Londonning ko'chasi bilmayman qanday,  
Sen so'zingni bajar, va ket!  
Kutaman!  
Dunyolarni alda ammo dadangga -  
Yolg'on gapirmasang shunda yutasan!

Mayli bir oz sotsang nima qilibdi,  
Mening qadrim to'lmas cho'ntaklaringga.  
Qurmag'ur yuragim sinsa - sinibdi,  
Zora shu deb yettsang istaklaringga!

Tezroq uch!  
Samalyot qanotlariga,  
Men bog'lab beraman senga parvozlar.  
Qalbingga qulog sol - qulog'ing bo'lsa!  
Hatto men eshitgan ingroq ovozni!

Unutma men senga hech bo'limganda,  
Begona emasman, bitta Vatandosh.  
Hobillik qilma, omading kulmaganda,  
Suyab qolmoqlikka menda bor bardosh!

Londonning yo'llari qanday bilmayman,  
Ammo Istanbuldan istagim imkon.  
Och qolsang ham baland yasha,  
O'lmarysan!!!  
Bir yo'lga boshlasin seni to'rt tomon!

\*\*\*

Xabarlashmay qo'ydik, siz tomon tinchmi?  
Hayotingiz sokin, ko'nglingiz oqil.  
Orzu - havasingiz ha'voli, kuchmi?!

Bosgan qadamingiz o'lchovli, odil!

Xabarlashmay qo'ydik, o'qish - ishlardan,  
Na menda vaqt ortiq, na sizda hoxish.  
Mujda kelmay qo'ydi sotqin quchlardan,  
Yoki e'tiborim bermaydi ro'yxush.

Xabarlashmay qo'ydik yolg'on - rostlardan,  
G'alaba, dastasi bilan omaddan.  
Achchiq qasamlardan, qast-ma qastlardan,  
Nahotki birorta hosil qolmagan!

Xabarlashmay qo'ydik, baxtimiz kulgan -  
Bizni juda qattiq suyguvchilardan.  
Bizni - o'zimizdan badarg'a qilgan  
Yuraksiz qoldirib qo'yguvchilardan!

Xabarlashmay qo'ydik, orlimiz tabiiy,  
Tuf degan tufrikni qaytib olmaymiz.  
Ammo aldab netdik -  
Jim  
Uzoq  
Suniy!  
Bexabar  
Ko'z  
So'zsiz  
Sevmay qolmaymiz!!!

\*\*\*

Mehmon kelsa kimsasiz uydek  
Huvillagan qalbimga.  
Sovimasdan odamdan butkul,  
Olov yoqsa oldindan...  
Sezim baxorlasa va-  
Yengillashsaga,  
Ko'ngil?!

Mehmon kelsa eng sog'inganing,  
Yig'lashib quvonsang -  
Quvonib yig'lasang!  
O'fkalasang shuncha yillardan,  
Vaqting yetmay qolsa uxlashga!  
Qanday mazza emasmi?!  
Ko'ngil!

Mehmon kelsa azizlasha shu,  
Qiymatini bilsa bu hayot.  
Muxtaramlik eng go'zal tuyg'u,  
Qadrlansa qayta odamzot!  
Qanday haqli emasmi, ko'ngil?!

Yuragingni dasturxon qilsang,  
Bosh ustida bo'lsa do'stlaring.  
Sadoqatga vorislik qilsa...  
Duo bo'lsa aziz so'zlarin!  
Mezbon bo'lsang -  
Mehmondo'st ko'nglim!!!

\*\*\*

Assalomu alaykum va rahmatullahi,  
Va barakotuhi!  
Juda sovub bormoqda dunyom.  
Eng beminnat savob ber bizga,  
Nadomatlar bo'lmoqda qiyom!

Bir nafas umriga sig'gan shukurni,  
Bir butun umrimdan adashtirma Hu.  
Bu dunyoga kelgan ilhaq shuurni,  
Abadiyat sari yo'llagin mangu!

Tavbasiz qoldirma ibodatimni,  
Og'riq vijdonlarga malham ber mo'l -mo'l.  
Somon yo'llariga bitgan xatimni,  
Rahmat yomg'irlari yuvsinlar butkul!

Assalomu alaykum va rahmatullahi  
Va barakotuhi!

\*\*\*

Menining ko'z yoshimda savalandi tong,  
Og'ridi osmonga sig'magan ishonch.  
Kecha do'stingman deb solgan edi bong,  
Bugun dushmanlarim bermoqda yupanch.

Uzr, men chegar qo'y madim qalban,  
Odamlarga maqom bermoqqa haqqim -  
Yo'q! Balki uzun yo'ldan uzilib qolgan,  
Qadamlarni yig'lab iziga taqdim!

Ular odam edi!  
Men va siz kabi!  
Sevgi, sadoqatni sotmasdan avval.  
Qanday unutayin ularni Robbim?!  
Bizga yurak bergen, ishqil mukammal!

\*\*\*

Osmoñ oñislardan qilar tomosha,  
Yerning titrog'ini sezar daraxtlar.  
Men uchib boraman tog'larni oshib,  
Faqat uninggacha ozroq kut, Ota!

Osmoñ oñislardan ko'rib turibdi,  
Yurakdan chiqmagan sirlaringni-da.  
Men hamma g'ovlarni bir yoqqa surib,  
Boraman, ozroq kut meni ungacha!

Sog'inib ketyapman halovatlarni,  
Vatan isi kelar ovozlaringdan.  
Tupurdim har qanday mukofotlarga,  
Rizolik ko'rsam bas men ko'zlariningda!

Garchi o'rtanasan mendan haliyam,  
Kalishining gardi zarlarim, Ota.  
Omadim kelmadi, meni haliyam,  
Faqat qo'llaringni ko'kga tut Ota!

OSMON HAMMASINI KO'RIB TURIBDI...

\*\*\*

"Aytilmagan so'z qoldimikan?  
Qizim senga yetarmikan,so'z?"  
Aya!  
Xudo xohlamaganda,  
Kelmas edi yana qaytib Kuz!

Ochilmagan gul ko'p-ku hanuz,  
Barchamizga bordir nasiba.  
Hadik nechun,tashvish ham bejiz,  
Axir Siz-ku, tirik Qasida!

"Chumolilar, o't-o'lanlar" bor,  
Ona yer bor...  
Havo bor... havo...  
Yaxshiyamki ishq bergan ozor,  
Menga tole' ketmas beparvo.

\*\*\*

Ko'o'o'p gaplar bor Siz taraflarda,  
Uchib ketar turnalar.... qayon?!

Kuzgi bog'day bo'm-bo'sh yuragim,  
Qolganlariii...Xudoga ayon.

Bu so'zlarim sizga yetguncha...  
G'iybat uchun tanishlarga "gap".  
Kunlar hijjalanar... o'tguncha,  
Siz - yashaysiz Hayotni yodlab.

Aytib qo'yay,  
Qaytmayman ortiq,  
Yonar tog'lar o'sar ko'ksimda.  
Men qolmayman o'zimdan ortib,  
Qayta sevaversam, o'ksinmang.

Sizga yetmas ammo qo'shiqlar,  
So'zlar uvol ketsa ranjiydi.  
Bu dunyoda sizday oshiqlar  
Boshqa tug'ulmasa qaniydi...

\*\*\*

Yostig'ing burkanib boshingga,  
Uxlaysan gunohsiz go'dakday.  
Parilar kiradi tushingga,  
Shivirlab aytadi ertaklar.

Labingga qo'nadi tabassum,  
Jilmayib qo'ysan bexosdan.  
Kipring to'qiydi ming afsun,  
Iltijo qilasan bir rostga...

Yoningga tushaman xonangda -  
Poylaydi bizlarni Yer, Osmon.  
Yuraging kengayar yanada,  
O'ylaysan bu baxtlar bepayon...

Taqillay boshlaydi eshicing,  
Laqillay boshlaydi takalluf.  
Jiringlar uyg'otgich qo'shig'i,  
Tong otar  
Ilk bora betaklif.

Choyshabing tortasan yuzingga,  
Qo'lingdan sirg'anar sochlarim.  
Yorug'da qarolmay ko'zingga-  
Men sening tushingdan qocharman.

\*\*\*

Osmon - yelkamdag'i ridodir,  
Yer - uchar likopcha - ichida.  
Sen borsan, sadaqa - Xudodan,  
Men qanday rizqimdan kechaman.

Qo'llarim - yuzingda suzguvchi qayiq,  
Soching to'lqinida behol qalqiydi.  
Mening sog'inchlarim o'limga loyiq,  
Sening hayolingda sang'iydi...

30.08.2014

\*\*\*

Ishtiyooqqa ish qolmagach -Men,  
Ish qidirdim shodliklar aro.  
Sen boshqa bir qavmlik ey yor!  
Entikarman netay tobora...  
Yozilganday emas bu kitob,  
Toshgullarning mevasi a'lo.  
Olmagan ishq yashashga xitob,  
Hayollarga kelmas ne balo.  
Doyimgidek o'zimga tersman,  
Menga oqil bo'lma qorako'z.  
Yuragimni itlarga bersam,  
Yig'lab-yiglab g'ajiydi beso'z.  
Dalli odam, devona odam,  
O'zigayam begona odam.  
Osmonlarda oy tug'ar o'ylar,  
Ko'zlarini poyingga qadab...  
Ishqi yo'qqa ishim qolmadi,  
Ish qidirdim jimliklar aro.  
Dunyo menga teskari tenglik-  
O'dag'aylar atrofga qarab!!!

\*\*\*

Ishoning bu Kuzga yetib bog' kului,  
Uzoqlardan Sizga qarab o'ylandim.  
Yoningizda bir qiz dimog' chog' kului,  
Buncha ulug' azoblarda siylandim?!

Yakka- dukka qoldi tilakning bari,  
Baxt o'pmagan lablarimni tishlarman.  
Jonim og'rir baland kulgani sari,  
Nahotki men qarodilga o'xshayman?!

Hasadim yo'q edikuya avvallar,  
Rashk qilmasdim Kuzda ochgan gullarga.  
Yo o'laman, yo qolaman shu galda,  
Gap so'rasa nima deyman ellarga?!

Qanday g'amgin Kuzga yetib bog' xursand,  
Men qaytayin,  
Ola qolsa ko'zlarim.  
Sorig', sog'ir baxtni yetalab yursa,  
Murodi yo'q masallardan so'zlarim.

\*\*\*

Hijron egdi, tizladim ko'kka,  
Xotiralar bemayl-u,  
Xotir...  
Ko'zlarimga yuraging cho'kkon,  
Nahot Senda yo'q hech havotir?!

Yig'lamayman, kattaman,  
Katta!  
Tajribam bor hijrondan jindak.  
Qanday ranjiy aytgin bugundan?!  
Yuragimda erkatoy kurtak!!!

Avaylayman! Hislatimdan ham,  
Bahor yaqin,  
Yashamoq lozim.  
Bizni tanishtirgan taqdirga,  
Sen emassan, men emas qozi!

Shovqin solar tegramda dunyo,  
Olib - sotar bir - birin tashvish.  
Masofani uzooooqqa qo'yib  
Lablarimga maftun "Radiy Fish"

19.02.17

\*\*\*

Gaplashib turibmiz-ku,  
Telefonda bo'lsa ham,  
Hech kimdan kam emasmiz,  
Aya, nega sizda g'am?!

Siz omonsiz, men omon,  
Ukalarim, hotirjam.  
Tinch bo'lsa bas siz tomon,  
Tinch bo'lsa kongil, Vatan!

Yo'l izlab - yo'lga chiqdim,  
Maqsadimga yetgayman.  
Bosh yalang do'lga chiqdim,  
Boshim omon qaytgayman.

Ovozim baland - baland,  
Chaqirsam qarar Quyosh.  
Madhiyam siz bergen pand,  
Kistamda hamma ko'zyosh!

Aya, bo'l mang havotir,  
Otam bilib qolmasin.  
Ketib qoldim deb erta,  
Yuragiga olmasin!

Men mammunman, demak-ki,  
Oson emas bu ketish.  
Sarsonlik ne demakki,  
Yomon, kurashmay yetish!

Keling, kuling, bilaman,  
Sabr tikkan soyasiz!  
Men qizingiz bo'laman,  
Siz eng yaxshi Ayasiz!

\*\*\*

Halak bo'ldi oraliq,  
Ortmaydimi imkonlar?!

Nahotki bir choralik,  
Joy qolmagan zamonda?!

Sening bo'ying balandmi,  
Yo orzuning osmoni.

Haliyam bilmayapmiz,  
Yo'llarini,

Yomoni!

Qat - qatgina, qatlangan,  
Ichimda eski kitob.

Varaq - varaq titilsam,  
Barmoqlaringda titrab.

Bilmaydi- da boshqalar,  
Bilmagani ham yaxshi.

Hech kim senga o'xshamas,  
Peshonamdag'i qashqam.

Bir kun boshingga qo'nib,  
Donlasam dudog'ingda.

Yuragimni ichsang so'ng,  
Muqaddas qadog'ingda.

Olis ora, ora jim,  
Ikki ortmas bo'lganda.

Seni qandayin sevdim,  
Kap - katta qiz bo'lganda!

Yetar endi, oqillik,  
To'n bichilmas hayolga.

Ruhimizda yaqinlik,  
Qanday baxt bu, ayolga!

\*\*\*

Zinapoyalarga cho'kkalagan sabr,  
Kutishni o'rgatar siniq oynalar.  
Ey Oyni tutolmay quloch yozgan abr,  
Eshiklar bunchalar uzoq o'ylanar!

Kirsa nordongina baxt bor, kirmasa-  
Orqacha yo'llar ko'p, shirin tillar ko'p.  
Ayting, buncha uzoq izsiz yurmasin,  
Ostonada kutgan sog'inchlar to'p-to'p!

Faqat sal arzchi, biroz xatoli,  
Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi.  
Yashirib bo'lmaydi - yarali dilni,  
Yuragi xastaning, ko'zi kulmaydi!

Zinapoyalardan qaytib kelar baxt,  
Oy to'lgan kechada - umid nurlanar.  
Avgust lablaridan ishq olar dasxat,  
Qaytish yo'llarida vijdon tirlalar!

\*\*\*

Ey, birov ekmagan erka daraxtlar,  
Ey, o'zi ko'kargan gullar, maysalar.  
Hali tushunchamga kirmagan baxtga,  
Tegishli ko'ngilda nedir...  
Qaysidir...  
Oliy ibodatda tentiragan nur,  
Eng yaqin, eng yiroq yulduzim bu Ishq.  
Tirnoqdan tashqari olamni ham ko'r,  
Ey ko'zimga tushgan dumaloq bo'shliq!  
Qachon berkinadi havolangan g'ash,  
Qachon muxabbatga arziyman, men ham?!  
Qachongacha changim, ming rangga talash,  
Qachon yuragimdan unar hur chaman?!  
Ey!  
Minnatsiz o'sgan daraxatlar !  
Gullar!  
Ey, javob kutmagan go'zal savollar!  
Ey, mening ongimdan oliy gulxatlar,  
Keyin nima bo'lar?  
Mening davomim?!

\*\*\*

Yo'llarning zaxmati, yillarning ta'mi,  
Sog'inchning pichingi, sevgining dardi.  
Siz ko'ngil uyimda o'chmagan shamim,  
Siz izin artmayin kutgan, begardim!

Ey qo'li mehnatda, yuragi Yorda,  
Yorug' umidligim, butun dilligim.  
Umrin baxorlari o'tyotgan qorda,  
Ammo meningligim!  
Butun menligim!

Ko'zingiz bor bo'lzin, yuzingiz yorug',  
Tegib tursa agar duoim butun.  
Sabrimizga sabab zeb bergen sari,  
Yashagim keladi muxabbat uchun!

Bir ayol tilagi, bir baxt butuni,  
Vafo, sadoqatlar tirik vijdondir.  
Kaftim yuzim silab, og'riq yutundim,  
Siz boryoq tomonlar,  
Bo'lzin omonda!

*Yashashga bir soat vaqt qolgan xolos!*

Osmon - moviy etak, qorasoch malak,  
Yer igna ko'zidan sirpalgan arqon.  
Daraxtlar tuproqqa sig'magan tilak,  
Qattiq muxabbatni urgan saraton!

Tushuncha aroqxo'r alkashqadamdir,  
Ursang, do'pposlasang to'yib, yurakni.  
Yurakka berkingan o'sha odamdir,  
Qamoqqa aylangan yurak- yurakmi?

Tilanchi ko'zida o'zgarmas o'kinch,  
Yo'lning bag'ri qadar ezik lahzalar.  
Umid yodingdagi birinchi o'pich,  
Muhabbat so'zlari gulli lahjada.

Savob - itdan suyak qarzdor qassob,  
Yaxshilik bobomdan boqiy vasiyat.  
Munosib o'lmoqlik muroddir, yashab-  
Ismingga aylansa muborak qismat!

Bir soatlik boqiy hayot qolasa, ko'ngilni  
Tashlab ketgudayin bo'lsaydi dunyo.  
Rang-u hushi singsa milyonta yilni,  
Ortiqcha yashashdan qilolsang hayo!

\*\*\*

Uyimizdan - uyingizgacha,  
Yo'l uzoqmas!  
Masofa uzoq!  
Eslab turing to'yingizgacha,  
Yana ozroq,  
Unutmang ozroq!

So'ng qovruling, olov bo'lsin dil,  
Alam qilsin bu qastingizdan.  
Siz boshlagan qaytishi yo'q yo'l,  
Uchirma dil, go'l dastingizdan.

Men hammaga Baxni ko'rsatib,  
Muqaddima qildim o'yinga.  
Oh urishga qolmas fursatim,  
Vaqt yetmaydi g'amgin o'yimga.

Bari yaxshi, yomonmas, aslo,  
Birov bildi, birov bilmasin.  
Sizdan tezroq unutsam a'lo,  
Kuyib ketmang, alam qilmasin!

Yo'l uzoqmas, hayollar uzoq,  
Qarich boshqa, qulochlar kalta.  
Yuragining murvati nosozroq,  
Endi sizni kimim deb atay?

\*\*\*

Ba'zan siz ham, hayolingiz ham,  
Olma gulday samiyimi, erka.  
Dunyo emas,  
Odamlar beg'am,  
Yig'layotgan yuragim ekan!

Men ko'nglimni ko'ndirolmadim!

Sarg'ayadi kutishda sodiq,  
Isimini ham unutgan bekat.  
Biz ayrildik...  
Muxabbat qoldiq,  
Alam esa ko'karar bekam!

Men orzuni undirolmadim!

Hozir uyg'oq ong ostidagi,  
Nimjon sezgi hujayralari.  
Aqlingizning o'ng dastidagi,  
Majburiy baxt ijaralari!

Uzr, bunday bo'ldirolmadim!

Hammasini kelishgan taqdir,  
Qachongacha rizolik yo'qdir.  
Men dunyoda badavlat faqir,  
Boy bergani boyligin yo'qdir!

Bu yerlarda qoldirolmadim!

Rostdan, asli yomon emassiz,  
Ravo yo'qdir yaxshililingiz.  
Kel demassiz,  
Ket ham demassiz,  
Maroqlimi qarshililingiz,

Sizni yana kuluirolmadim!

Olma gulday erka, samiyimi,  
Tuyulasiz ba'zan, o'zimcha.  
Ey bekamim,  
Mening kamimey,  
Mehringiz ko'p, aytar so'zimcha,

Men hammasin bildirolmadim!

\*\*\*

Ichimda milyonta teskari daryo,  
Umid uzilmagan eng so'nggi yaproq.  
Sevaman deyishga qiladi hayo,  
Rad etsam yuragim turibdi titrab!

\*\*\*

Muxabbat har yerda bordir,  
Bizni g'amga molik etma.  
G'urbat kimga bam darkordir,  
Yo Ishq!  
Ko'ngilni tark etma!

Bosib kelsa bo'g'zimga sel,  
Yozib ketsa dardimni she'r.  
Aytgulik sobira bo'lgil,  
Demakki, buyurdi budir!

Piyolaning halqalari  
Labda sirlardan ogohdir.  
Sori ko'lning baqalarin  
Qo'shiqlari chorigohdir!

Be qasam yelkanli kemam,  
Sen kechsang ham suf demasman.  
Bitta menmi yangish suygan,  
Shukur aro uf demasman!

Muxabbat har yerda bordir,  
Ishqsiz kunni kun demasman.  
Ishq urganga Xudo yordir,  
Qolganini  
Kim demasman!

\*\*\*

Chirog'i o'chmasin hech bir xonaning,  
Quyoshni to'smasin tutunzor, hadik.  
Yegirma to'rt yoshga kirgan bolaning,  
Oyog'ida sobit turganin ko'rdik!

Muhimi bu eshik qadimligi rost,  
Muhimi o'zimcha olyapman nafas.  
Balki kimlargadir erish tuyilar,  
Nishonlanish- singan asrlik qafas!

Qadam katta narsa, uchmoqdan mushkul,  
Haqqining halollab yashamoq haqqi.  
Dunyoda eng totli, sharafli ishdir,  
Inson o'z ismida atalmoq baxti!

Qay yoqdan qaramay yuragim shakli,  
Isitib turadi mehri yoniq o't.  
Baxtga mendan avval munosib, haqli,  
Tojimning olmosi men tug'ilgan yurt!

\*\*\*

Shakarsiz choy bilan achchiq shokolad-  
Mazmun-  
menden hurkib uchgan Musicha!  
Xurshid Osmondag'i qalbaki taxmin-  
Endi isitmaydi!  
Hamma o'zicha...

Oqlangan devordek ko'rinar huzur,  
Ichida o't yonmas harorat bilan.  
Mening g'olibligim o'zimga manzur,  
Piyoda ketyapman ishqil bor yo'lidan!

Deraza kechani takrorlar har shom,  
U har kun botadi yurakka qayta.  
Orzular darbadar, ey hayoli xom,  
O'zingni ham qo'ygin to'yingga aytib!

Qolgan xurramliklar yolg'ondir ishon,  
Soxta kulgulardan, sof yig'i afzal.  
Qani ol,  
Choydan ich!  
O'zingni tushun!  
Ko'ksingda tong otsa...  
Qanchalar go'zal!

Shakarsiz choy bilan achchiq shokolad-  
Mazmun-  
menden hurkib uchgan Musicha!  
Quyosh Osmondag'i qalbaki taxmin-  
Endi isitmaydi!  
Hamma o'zicha...

\*\*\*

Malohatli tonish ham!  
Keyin,  
Sabr qilmoq esa naqadar!  
Yurak rangi to'lgan ko'zimdan,  
Tonib ketdi bitta ishqpadar!

Olaladi qancha daydi it,  
Tishlangan non, kaftda siniq Oy.  
Cho'ntagimdan kelar kuyuk xid,  
Hamon ichim yonayotganday!

Qornim emas, ko'nglim ochqadi,  
Tirnog'imni tishlab sindirdim.  
Ko'zing qo'rqi, yo'llaring qochdi,  
So'ng meni ham g'amga ko'ndirding!

Yomon qotdim!  
Bo'sh va alomat!  
Ismsiz kun, sap-sariq umid.  
Xudoyimga bo'lgin omonat,  
Yerga ko'mdim - ko'klarga uning!

Maftunkor baxt!  
Nafsinkor hayot!  
Otasiz ishq!  
Onasiz qo'shiq!  
Ey choyihaq, baxti besavod,  
Men ham oshiq!  
Mening ham oshiq!

\*\*\*

Quvgan ham Xudo der,  
Qochgan ham Xudo!  
Xudo deganlarga  
Xudo yor bo'lsin!  
Kaftimga to'ldirib  
Joyladim duo,  
Dunyo ishqing bilan  
Intizor bo'lsin!

Senday teng kelarmi  
Mexribonlikda,  
O'zingday tinglovchi,  
Do'st bormi yakkash.  
Senday bor yo'q aslo,  
Mudom borlikda.  
Senday yor topilmas  
Dilrabo, Dilkash!

Men milyard mo'minning  
Eng oqsoq biri,  
Qavmimning gardiman,  
Ey oliy she'rim!  
Bir kun tuproq tug'gan  
Gulga ko'milgum,  
Mehrga loyiq ko'r,  
Ko'ngilning to'ri!

Dunyoga tinchlikni  
So'rashdan avval,  
O'zimga insof ber,  
Hammaga qo'shib.  
Iymoni rost bergin  
Har kimga tugal  
Yig'isiz bomdod ber,  
Shom ber, beqirg'in!

Kuygan ham Xudo der,  
Kuydirgani ham!  
Seni tanimagan ko'zga  
Shifo ber!  
Yaratding fitnalar  
uydurganni ham,  
Dardi bor dunyoga  
O'zing davo ber!

\*\*\*

O'ylanib qolasan ishonib bo'lib,  
Rostdan ishonganingga-  
Nahot aldamagay bu Umr!

Oqibat qilgansan yurakni bo'lib,  
Rostdan ishonganingga-  
Aldanmagay nahot, bir Umr!

Odam uchun kerak hammasi,  
Keraksiz emasdир birorta zarra.  
Ortingda qoladi har qanday marra,  
Bu yashamoq aksar gammasi.

Tutqun vujudingda abadiy hadik,  
Rostdan ishonishni istaysan juda.  
Qonimdan ma'lunni qo'yivor Xudo!  
Umrim unga la'nat bitgan kundalik!

Yomg'irlar ovozi kelgan to'qnashuv,  
Tasodif aks etgan har marxamatda.  
Layoqat titragan eng so'nggi qo'rquv!

Axir oz- moz imlo taniyman zora,  
Men butkul ishonmoq uchun yashayman.  
Bunga loyiқ ko'rgin borimni - Yorim!

\*\*\*

Har kuni yangi bir baxtning suvrati  
Yuklanar.  
Ko'z - ko'zsiz.  
Tabrik va havas!  
Havas qilmoqlikka yetar qudratim,  
Alam izlagan dil meniki emas!

Yo'qlab borganimda yuragim bilan,  
Uzoqdan bir qarab - qaytmoqlik uchun.  
Siz!  
Balanddan - balan, hazilsiz kulgan,  
Mening jiiiim turmoqqa yetyapdi kuchim!

Vergul qo'yib qo'yib muhabbatimga,  
So'rayapman  
Sizga eng go'zal hayot.  
O'zim qoil qolib bu san'atimga,  
Ichim achib ketar...  
Lekin  
Bu  
Hayot!

\*\*\*

Xush qol hali menga to'ymagan fursat,  
Dardlarini to'kib ulgurmagan qalb.  
So'ngida asrandi o'zingni ko'rsat,  
So'ngida haqqimni qilaman talab?!

Qushga aylanganman allaqachonlar,  
Ini yo'q, qo'nimsiz sarson Humoman.  
Behuda parvozlar so'rар kuchimni,  
Boshingni tutmaysan bilmadim, sen ham.

Tutib, yo'l bo'lmaysan qadamlarimga,  
O'zga tuproqlarga ekasanmi jim?  
Sensiz sohibalik undan nariga,  
Zotan mag'rur gado bo'lganim ustun!

Xush qol!  
Yamoq umid!  
Ochiqqan ilinj!  
O'zini sevmagan xudbin hayotim.  
Ey yurak!  
O'zing bo'l oqil ko'rsatgich,  
Aqldan ozmoqqa yetmas jur'atim!

\*\*\*

Yashalgan damlarni tark etdi Bahor...  
Faqat rejalar bor bekam, sayqalli.  
Faqat hayollardan to'kildi ohar,  
Biz xato qilmadik!  
Mudom aqilli!

Tanlab tanovulg'a hozirlanar nafs,  
Hatto boshqalarga ko'z - ko'z ibodat.  
Hatto ko'zimizga qasd solgan qafas,  
Rejadan adashmas, hattoki himmat!

To'qilmagan ertak qolmagan birda,  
Allaqachon o'lik hujayra - tuyg'u.  
Ko'ngil ko'zin bo'yab istalgan rangga,  
Samiymiyat istab chekamiz qayg'u!

Nafrat eng tozadir!  
Hozircha bir shu!  
Ekvivalentini topmagan, toza.  
Uzoq yashatmaydi har qanday kulgu,  
Agar andishalar qilmas taqoza!

Yolg'onga chatishgan boshqa hammasi,  
Yolg'on minnatdorlik,  
Havas,  
Ehtirom!  
Sizningcha hayotda hayot kammasmi?!  
Sizningcha asliga kim-kimga g'irrom?!

Yashalgan damlarni tark etdi Kuz ham...

*"Maftuna Muhammadaminova"ga*

Yillar bilan ishim yo'qolgan,  
Rasmiylashmas hech bir tilagim.  
Yuragimda suvrati qolgan,  
Changlanmagan dekabrgulim.

Yelkalari boshimga orom,  
Men sig'magan dunyodan halol.  
Yuragi oq, ko'zлari qoram,  
Senga hech ham kelmasam malol!

Do'st desalar ana deb aytSAM,  
Oramizda bir Xudo bo'lsa.  
Men sen bilan maqtanib o'tsam,  
Kemtiklarim mosuvo bo'lsa.

Dugonamey, qalb desa qalbday,  
Usti butun - ichida tutun.  
Yengolmaydi hech g'aliz, Alpday  
Seni yaxshi ko'rGANIM uchun!

Ruhim bilan hamisha egiz,  
Sezgim seni quchar qarshi ol.  
Oraliqda bir Qora dengiz,  
Masofa ham sog'inchday halol.

Tabriklasa arziydi meni,  
Borsan,  
Borman,  
Bor bo'lzin dunyo.  
Tavalluding mo'jiza seni,  
Umring bayram bo'lzin bexato!

\*\*\*

Deysanki unutgansan,  
Sochlarimning rangini.  
Ko'zimda asrayapman,  
Kipriklaring changini.

Deysanki hijolatda,  
O'ksinib, begonaman.  
Men o'zimni unutgan,  
Telbaman  
Devonaman.

Deysanki ne bo'libdi,  
Qaysi yara bitmamish,  
Agar dard bo'lsang chindan  
Bil og'riqlar o'tmamish.

Deysanki baxtli juda  
Vaqti yo'qdir eslashga.  
Mening mazmunim bitib,  
Oqibatim tezlashgan.

Unutmaganman rostdan,  
Unutsaydim, qaniydi.  
Afsus, ko'nglim ming yilgi,  
Hislaringni taniydi...

\*\*\*

Eng murakkab yaralgan miya,  
Tarozida Yer shari va bosh.  
O'rtada shaytoncha kinoya,  
Uzoqlarda o't qalar Quyosh.

Mudrar kirlab ketgan qo'lida ish,  
Takkallufda jami oqibat.  
Qulog'imga tiqilar mish-mish,  
Ko'zlaridan ko'karar bidat.

Ato tuproq ostida jim- jit,  
Sha'n hilpirar maysadek ojiz.  
Mayitlarni yuvmoqchi bulut,  
Yaqinlashar to'pori tig'iz.

Tishlamoqchi bo'ladi pashsha,  
Hidi chiqqan ko'nglingdan parcha.  
Shu miyyaning g'ashida yashab,  
Qutilmassan dunyodan qocha.

\*\*\*

Sukunatdan iboratdir suhbatimiz,  
Duodaman  
Vojibda Sen  
Oshkor... oshkor.  
Muhabbatdan iboratdir mehnatimiz,  
Bu olamda  
Men bor faqat  
Chunki sen bor!

Sabil qolmas  
Jabr ko'rmas hech bir azob  
Sevib menga  
Bergin jazo!  
Bergin jazo!

Anglayapman  
Manosiz bu borliklarni,  
Baqirsam ham tushunmaslar...  
Boram izhor!

Bir kuningni  
O'ylab ko'rsam  
Ajoyib bu!  
Qayga ketsam  
Mening bilansan  
Yuksiz!  
Va bor!

\*\*\*

Ko'zlarimni chirt yumib,  
Hayajon va dard to'la  
Ertaklarimni aytsam...  
Tingla!

Keyin o'zingdan ketib  
Mening og'riqlarimdan  
Chegaralardan o'tsang!  
Qara!

Bir kun kelib bilaman,  
Sen ham tashlab ketasan  
Birinchi muhabbatday  
Yo'qmi?!

Ko'zing qiysa qiyashni,  
Menla ko'ngil o'ynashni  
Alam bilan siylashni  
Haqmi?!

Sendan avval sevganman,  
Bilib qilgan xatom shu  
So'ng senggacha kelganman  
Yarab!

Agar yig'latsang meni,  
Bir chekkaga yozib qo'y  
Yog'da yoqaman seni  
Oyyy!

Shunday!  
Bir kun balkondan,  
Uzoq - uzoqqa qarab,  
Yo'llardan seni so'rab  
Olganman!

Bundan 3 yillar avval  
Hoziridan go'zalroq  
Lekin baxtsiz bo'lganman!

\*\*\*

Alam qildi,  
Yig'ladim so'ngra,  
Kiprigimning bo'yog'i oqdi.  
Bir hiqqillab  
Birida ho'ngrab,  
Do'stim shirin jonimdan  
Chaqdi!

Unutarmi inson o'tmishni,  
Shunday bo'lsa, demak-ki yolg'on.  
Har niyatni,  
Har bir qilmishni,  
Varaq -varaq dasxati qolgan.

Yo soddaman,  
Yo beogohman.  
Nima bo'lsa- bo'lgan o'tmishda.  
Inson qanday bo'lsa shunday mish,  
Yettisida yoki yetmishda!

Yana sevdim!  
Yana ishondim!  
Ishqibozlik qildim mehrga.  
Bosh ko'tarsa - shubhadan tondim,  
Shirin so'zlar oldi sehrlab.

Ming birinchi ertakman balki,  
Boshdan yiroq - murodga yaqin.  
Ey menda hech yo'qli qalbaki,  
Olay desam yurakka taqib.

Alam qilar keyin ba'zida,  
Yana qancha aldanishing bor?!

Umid bormi hisob ozida?!

Insof qilgin o'zingga ozroq.

Xafa bo'lma!  
Sovdogar dunyo!  
O'yinchi ko'p,  
O'ynatguvchi ko'p.  
Ko'zyoshlaring esa bebahos,  
Kiprigingning bo'yog'i-ku, xop!

\*\*\*

G'am, birinchi bora ofarin,  
O'lim, senga sharaflar bo'lzin.  
Sen yurakni ezganing sari,  
Birlik tomon boshlagan yo'lisan!

A'za, iymon yog'gan kun berding,  
Xotirlatding,  
Uyg'otding bizni!  
Millat - millat bo'lganin ko'rdik,  
Endi hech kim yengolmas bizni!

\*\*\*

Haroratsiz Yozlar aro Qishga do'ndim,  
Seni xurram bo'lzin deya ko'ndim...  
Ko'ndim...  
Hali menga bandasi amr etmagandi,  
Loyihangning eng mushkulsiz bandi bo'ldim.  
Aytgandingku bir zamonlar sevgi ne deb,  
Sevgan bo'lsang topgandirsan javobingni.

\*\*\*

Ota menga bitta ertak aytib bering,  
Quyosh, Oyi bo'lsin,  
Yulduz, Osmoni.  
Bittagina ertak ayting, tushimga kirib,  
Sizga o'xshab yaxshi bo'lsin qahramoni.

Ota menga bitta ertak aytib bering,  
Yalmog'iz, sehrgar, jin, devdan holi.  
Ikkalamiz shirin olmalar terib,  
Hayitlik ulashsak hamda halvoli.

Aytavering uzun- uzun, allalanib,  
Uxlab qolsam...  
Ketib qolmang,  
aytavering.  
Ota menga ertak ayting,  
Qayta, kelib,  
"Yoriltosh"mi, "Bo'g'irsoq"mi... qaytaraving!

Qo'rquinchliroq joylarida tutib qo'lim,  
Birga o'tib, murodgacha yetsak edi.  
Ota, buncha zerikarli, uzoq yo'lim.  
Sizi yo'q va qahramonsiz umrim endi...

\*\*\*

Egilsam poyiga tirkagim Otam,  
G'ururim, har ishi o'rnagim Otam.  
Sizni sog'indim-ku tushimga kiring,  
Menga yashamoqni o'rgating Otam!

Otasi bor uyda havotir bo'lmas,  
Erkalik bo'ladi, ishonch bo'larkan.  
Otaning qalbidek javohir bo'lmas,  
U bo'lsa g'amda ham quvonch bo'larkan!

Ota, o'pkam to'la, hiqqillaydi dard,  
Ortingizda bo'zlab qoldik uchovlon.  
Boshimgacha chiqdi o'rmalab hasrat.  
Yuragim ba'zida qilar to'palon!

Maysalar ko'karib qolibdi... vaqt bu...  
Boshimni silagan qo'llaringizdan.  
Ey jannat makonlim,  
Ey poyi - taxtim,  
Saharlik qalbimni yo'lladim sizga!

Eng aziz mehmonim,  
Mehribon Otam!

\*\*\*

Yangi ko'ylak kiygan qiz kabi,  
O'z- o'ziga mahliyo olam.  
Va sukunat aytga so'z kabi,  
Yuzimizda qalqiydi alam...

Koshki degan joylarimiz ko'p,  
Bitta kunga sig'magan g'amlar.  
Ko'p kurashmay qolganmiz mag'lub,  
Ana o'sha - hamma alamlar!

Yana hali anglab yetmagan,  
Mavridida xatolar bilan.  
Boshimizdan o'tib ketmagan,  
Qaysi o'lgan?!  
Qay biri qolgan?!

Yangilangan xotira faylin  
Sir saqlangan hujralarida  
Bosh egmagan ko'ngilning mayli,  
Peshvoz chiqar ijrolariga,

Aldayverar qaytalab sevgi,  
Aldanasan ming bor - biriga.  
Qizaradi taqiqning rangi,  
Rahmi kelib yaralaringga!

Sanog'i yo'q huuu yulduzlardek,  
Sen va menga o'xshashlar qancha.  
To'y tugagan to'yxonalardek,  
Suron tingan,  
Ovozlar o'chiq.

Tilaklar yo'q!  
Soxta, samiymiy,  
Kulgular yo'q, uvvoslar tugul.  
Suyagimni chalgan qadiymiy,  
Istrarida bastalangan gul.

Bo'y cho'zaman telefonimga,  
Na bir xat bor, na bir qo'ng'iroq  
Qayerlarda alahsir tig'iz,  
Mehnat hidi, burch tami uyg'oq.

Tasalliga muxtoj istaklar,  
Ro'zg'orim tek,  
Men va Muxabbat.  
Sinib ketdi bori tirkaklar,  
Aql boshda tuzganda hay'at.

Do'st nima u?!

Tangaga shakl.  
Dushmanlar ham eski do'stlarim.  
Menga kelgan xatlarni o'qib,  
Cho'ntagimda yashay boshlagan!

So'ng erkalik qilibmi bilmam,  
Yeganiga tuflaganlar bor.  
Ular hamma shodliklarim-u,  
Rejadagi baxtdan xabardor.

Qaydan bilay kimga ham nima  
Sir aytaymi?!

Umidim tirik!!!  
Meni qayta tug'ar har Juma,  
Ko'zlarimdan to'kib og'irlik.

Eshityapsizmi?  
Ishoning qattiq!  
Yashamoqqa ehtiyojim bor.  
Nafasimga yuragim sodiq,  
Hovurimda oxirgi Bahor!

Olisdagi yurtga entikib,  
Juda qumsab Otam ovozin.  
Vasiyatga o'ralib,  
Cho'kib,  
Kutayapman yana bir Yozni!

31.05.16

\*\*\*

Ortimda hayajon, sodda,  
Parishon,  
Biroz osmono'par, hayolparas, go'l.  
Yurakka ergashib hayoti sarson  
Ortimda...  
Qolyapti qancha - qancha yo'l!

Ortimda orzuga ot qo'ygan ovoz,  
Mushtidan yuragi katta - jasur qiz.  
Qanday bo'lsa shunday -  
Bebosh, bepardoz,  
Da'vondan qo'rwmagan yolg'izoyoq iz.

Ortimga qarashga uyalmayman hech,  
Balki hozirgacha quchmadim zafar.  
Har kun yengilgancha qorayarkan kech,  
Yangi kunlarimdan kutdim muzaffar.

Oldinda bilaman mening manzilim,  
Qoldirib ketmaydi bizni muxabbat.  
Olqish va qutlovga chiqar bir kuni,  
Meni kutib turgan oxirgi bekat!

### *Umid bobo*

Umidning nikohin qiymadi taqdir,  
Umidning umidin uzmadi taqdir.  
Umid umr bo'yи kutib yashadi.  
Umidga shu umid qilgandi taqdir.

Ot boqdi, otini "Ashk" deya qo'ydi,  
Hatto mushigining laqabi Ishqdir.  
Go'yo bor- u yo'jni oshiqcha suydi,  
Taqdir bu qilganing qandayin ishdir?!

G'alatiroq deydi tanimaganlar,  
G'alatiroq o'zi tanimaganlar.  
Biroz sochlarni oqlagan g'amlar,  
Biroz umrin kutish o'g'irlaganda.

U go'zal kimligin aytmadı lekin,  
Rasmi ham yo'q ekan ta'rifi oliy.  
Qirq yilki  
Ayvonda sigaret chekib,  
Unga so'zlar ekan ishqin, hayoliy.

-Qayerda bo'lsang ham,  
Qanday va qachon,  
Hayot daryosida oqqin muzaffar.  
Quvonch-u baxtlaring toldirib qo'ysa,  
To'xtasa  
Sen ketgan yo'llaring agar.

Qaytma, afsus qilma, achinma ammo,  
Yuragim,  
Hayolim senda doimo!

\*\*\*

Sizga hamma rang yarashadi,  
Didingiz yaxshi.  
Sizga hamma yarashadi,  
Didsiz bo'lib qolganingizda.  
Qadam bosmoqchiman...men ham, kimningdir ko'ksiga  
gulday taqilib...  
Yashasam yoqilib...  
Axr ozor berdim sizga ozmuncha,  
Boshingizga Ishqday yog'ilib.  
Yuragim yorilib ketadi,  
Sizdan yiroqlarda havo yo'q,  
Ming'illaydi radioda kimdir.  
Ovozingiz qadar navo yo'q.  
Hozirdan shunchalar jazodir,  
Hozirdan orada qazomi.  
Menga Sizday yarashmas hech kim,  
Yarashmaslar toki,  
Sezaman...

12.03.2014

\*\*\*

52 Kun.

10 Mart.

Vada bergen eding Bahorga,  
U ustivor gullashga tushdi,  
Xayolimday - yashil,  
Nimpushti.

Toshlar otib o'ynar anhorga,  
Huddi menga o'xshagan birov,  
Huddi senga o'xshagan birov!

1248 soat.

Millar xiyonatni bilmaydi,  
Esingda bo'lsa aytgandim avval.  
Soat taqib qo'ydim yurakka.  
Bir- biriga juda o'xwaydi.  
Seni kutib yashaydi!

10.03.2014

## *Hammasi yolg'on*

### **I.**

Ertaga yana shu...  
Bugun o'qishga borasan,  
kelasan,  
Hinducha so'zlaysan,  
o'zbekcha o'ylaysan,  
Xudbincha yashaysan - o'zingni.  
Lekin... bir kuni... bexosdan  
Tushingga kirganim uchun  
Bir umr izlaysan, ko'zimni,  
Hech bo'lishi mumkin... o'shanda.  
Kech bo'lishi mumkin!

### **II.**

Hammasi safsata ammo  
Orada  
"Sutlar bor, qaymoqlar!!!" rost ovoz chalindi.  
Ko'zlarimni ochib qaradim...  
Shift.  
To'rtta devor oraliq.  
Juda uzoqliging bilindi!  
Qaymoq sotib kelgan ayolning ovozlaricha rost bo'lsa edi bu  
o'ylar,  
Anjirday gullamay pishmoqda umrim,  
Ko'nglingdan uzilib tushmoqda umrim.  
Bir kun uningga yetsaydi o'ylar...

### **III.**

Men yana tush ko'rdim.

Uyog'otgisi keldi nafsimni o'ylab, Nafsidan kechmagan  
qaymoqchi xotin!  
Behos uyg'otgani uchun tushimdan,  
Tur mushparvar xotin -  
Ko'nglimga botar!

\*\*\*

Ona Sharq!  
Otamni sog'indim juda,  
Yoshim uzaymoqda -  
Umrimdan kesib,  
Bu yolg'on qayg'uga  
Bo'lmaydi chidab.  
Mening borligimni  
Yashagin sezib,

Otamni sog'indim!

Eng kuchli odamni!

Boshimni poyiga  
Burib uxlasm,  
Meni tongga qadar asraydi Xudo,  
Samarqandni tushda ko'rib uxlasm!

\*\*\*

Kimlarning tushida sang'ib yuribman,  
Nega chaqirmaysan,  
Yo tiling yöqmi?  
Nega yuragingga borar yo'llar berk?  
Yo mengacha qolgan -  
Bo'sh diling yo'qmi,  
Meni bil,  
Meni bil,  
Meni tezroq top,  
To tutab bitmasîn,  
Nom,  
Nishon.  
Yo'lingga qaragan ko'zlarimni yop,  
Oyog'imga o'zing solib qo'y kishan,

Axir Sensizlikda sang'ib yuribman...

\*\*\*

Kulmaysanmi Baxor bo'lsang, kulmaysanmi,  
Qovog'ingdan qor yog'adi nega osmon?!  
Men Quyoshni qidiryapman, bilmaysanmi,  
Axr uni sog'iniblar ketdim yomon!

Bilmaysanmi?!

O'tib ketgan Kuzlar qo'lga xazon tutdi,  
Armon tutdi,  
Toshlar otdi,  
Ichga yutdim.  
Menden qolgan ko'nglingizda - qolib ketsam...  
Oyoqyalang shum tahqirdan,  
Kulmaysizmi?

Bir vaqtlargi maktublari xayot berar,  
Saboq berar yashamoqdan saboq berar.  
Xotirlarni o'zim bilan olb ketsam.  
Bir o'zingiz, yo  
Zerikib qolmaysizmi?!

Men qayerga ketmoqchiydim,  
Bilmaysizmi???

\*\*\*

O'qiyapsiz, sog'inchdan bezib,  
Yig'lab yozgan xatlarim bular.  
Yutinasiz dardimni sezib,  
Sevgilingiz sevilib kular,

Ichimizda yig'ilar qotar,  
Yashirmaysiz hurmatingizni.  
Bu e'tirof ko'nglimga botar,  
Men bezyapman,  
Sezmadingizmi?!

Tegirmondan butun chiqqandim,  
Butun qolmoq uchun sizgacha.  
Ishq so'zini g'oyat uqqandim,  
Hayol bo'ldi bari o'zgacha.

Takidlaysiz bemavrid meni,  
"Yaxshi she'rlar yozadi qoyil"  
Taniysizmi, chizganim neni?!  
Har gapimga ismingiz moyil!

O'qiyapsiz undan yashirib,  
Ba'zan, o'zingizdan pinhona.  
Bizga baxtning yuragi achir,  
Ey qalbimga tushgan parvona!

\*\*\*

Eng go'zal so'zlarga eng ko'p loyiq, Siz,  
Sog'inib ketyapman men sizni Ona,  
Hayotning yalong'och rasmin ko'rib ko'z,  
Eng toza hayolning nigohi qonar.

Top- toza yo'llar -U, garchand notekis,  
G'ubori - g'uborsiz, talabi Oliy.  
Otam dasturxoni haloldan - to'kis,  
Shundan aytar so'zim o'nglikka moyil.

Ko'rgim kelayapti qishloq doshlarni,  
Sog'inch yurak po'stin yuqalatarmish.  
Aytchi, biror nolang menga o'xsharmi?!

Boshimdan arimas beboshlik, tashvish.

Men dumalab, chopib, uchgan ey go'sha,  
Hammasi boshqacha,  
Hammasi shirin.  
Senga muhabbatim avvaldan o'sha,  
Menga bu tole'ni shu tuproq bergen.

Eng go'zal so'zlarga eng ko'p arzirim,  
Men sizni so'zdan kop sevmoqligim shart,  
Koinot tojida porlagan zarim,  
O'zbekka taxallus oting - Samarqand!

\*\*\*

Va yana hordiqqa otdim boshimni,  
O'ylamoq charchatdi,  
Eslamoq yo'rди.  
Xasrat bosib o'tdi kirgan yoshimni,  
Men qachon Majnunning tushiga kirgum?!

Axloqsiz dard kului,  
Arzon do'st bilan,  
Qimmatladi mehr, sadoqat o'ldi.  
Qayerga ko'mildi hey o'sha suygan,  
Mening haroratim qayga ko'mildi?!

Bilmayman nimani kutar bu ilinj,  
Qoniqarsiz quvonch yashaydi qancha.  
Ammo ko'zi ochiq uxlamoq qo'rqinch,  
Ammo...  
Yo'rg'inligim sanoqdan ancha!

Boshimning ustiga ketgan izlaring,  
Boshimning ustiga sevsu, sevmasa.  
Orqangda qolmasmi illo ko'zlarining,  
Sen ketgan manzillar seni demasa?!

\*\*\*

Mening bo'yim o'sgan, oyoq, qo'llarim,  
Qosh-u kipriklarim, orzu - yo'llarim.  
O'sib borayapti barcha musbatlar,  
Mushtimda siqilar manfiy o'ylarim!

Issiq lablarimdan tutgan bir tilak,  
Aylana ko'zimda chegarasiz mung.  
Besabab suymadi Onamdan bo'lak,  
Sanoqsiz kechirgan yana Sen O'zing!

Ko'payib bormoqda yoshim va yoshim,  
Go'yo umrlarga sig'magan dilman.  
Shohona tusim bor, ey ulug' Shohim,  
Tomirimda oqqan faslsiz Guldan!

Behayot emasdир qurilgan hayol,  
Jamlanib bormoqda hayollar kuchi.  
Ismim muhabbatga eng go'zal savol,  
Muhabbat bor ekan, ketmaydi o'chib!

Ammo ichimdagi bir odam go'dak,  
Ko'zin mahkam yumgan, yig'lab tinmaydi.  
Unga aytib bersam hayotiy ertak,  
Uxlamas,  
Aldanmas,  
Bunga ko'nmaydi!

\*\*\*

Kechirish mumkindir yanglish xatoni,  
Lekin bilib qilgan gunoh emasmi?!  
G'aflatta sanalgan chuchvara xomi,  
Bir kun menman o'sha uvol demasmi?!

Yashash san'atiga kirmas modern,  
Yozilgan kitoblar anglatar buni.  
Tarix adabiyotin yod olib turib,  
Kimni shod qilyapsiz alamlar kuni?!

Bugun juda og'ir kelyotir boshim,  
Do'stdan pastlik ko'rghan qahramon menman.  
Sig'inib sevganim singlim yuvvoshim,  
Mexrim qolibiga sig'mading nedan???

Kechirish mumkindir ko'rni, soqovni,  
Karni yo cho'loqni, esi paslarni.  
Kechirish mumkindir tani moxovni,  
Qanday kechirayin  
Qalbi pastlarni!

\*\*\*

Olislagan dillar va yaqin yo'llar,  
Teskari urmoqda tovonda yurak.  
Allohma eltguvchi chorador qo'llar,  
Menga baxt ismi bor duolar kerak!

Hali kirmaganman 18 ga ham,  
Alvon hayolotlar nazarimdan past.  
180 yoshga to'lganimda ham,  
Duodor qo'llarda nomim bo'lsa bas!

E'tirof etaman rashkim -mehrimdan,  
Mehrim - havasimdan, e'tiqodimdan.  
Avvalimga, hamda so'ngsiz ohirimga,  
Sabab bo'ladigan sabr - toqatimdan!

Nabirasin boshin silagan kaftda,  
Onaning poyiga cho'kkан jannatlar...  
Chaqaloq quchoqlab erigan taftda,  
Yuragimni qo'shib yozingiz xatlar!

\*\*\*

Bir nuqtaga uzoq termulib,  
O'ng!  
Chap!  
Cheksiz muallaq qoldik.  
So'ng nigohni tashladi bo'lib,  
Biz adashdik, sargardon... toldik.

So'ng!  
Nogohon yiqilib ketib-  
Ilk bor Ko'kga tushdi ko'zimiz.  
Tuproq qoldi yelkadan tutib,  
Biz tuproqda topdik- o'zimiz!

Bir Osmonga yolvordik uzoq,  
Boshqa - boshqa sayyoralarda.  
Sog'inchlar ing bilan bir quchoq,  
Uchib ketsam tayyoralarda!

Bu yiqilib yotgan odamning,  
Olasi yo'q gaplari edi.  
Shunday ekan, qismat,  
Modomki,  
Men bariga ko'z yumgan edim.

Bir nuqtaga qarar edik biz,  
Manzili yo'q yo'l yo'qmi?!

Qancha!  
Kattalashib borar ko'zimiz,  
Muallaqlar mudraydi charchab!

Biz manzilga o'qday uchamiz,  
Iz qoldirib yurakma-yurak.  
Yerdan chiqqan ulkan ko'chamiz,  
Bundan ortiq bo'lmasa kerak!

\*\*\*

Oson yashash oson emas,  
Ko'zlarin giz biroz kulsin!  
-Ishlar qalay?  
-Yomon emas!  
Umriziga sharf bo'lsin!

Imtixonlar bir kun bitar,  
Ne kun bo'lsa boshdan o'tar.  
E birodar, qadding ko'tar,  
G'amlar biroz yolg'iz qolsin!

Nima bo'pti dil og'risa,  
Sen hammadan balandroq kul.  
Hammasidan ham to'g'risi,  
Yashamoqning mag'zini bil!

Ketgan omad qaytmasa ham,  
Yuragimiz ursin bekam.  
Romolchalar bo'lmasin nam,  
Tabassum qil!  
Tabassum qil!

\*\*\*

Bir kun tuganmoqdir asli yaralish,  
Ruxim Osmon bilan Yerga aralash,  
Iz qolishi mushkul hamma qadamdan,  
Umr shoh asarin mushkul qoralash!

Kimga davron yetmas, kimgadir navo,  
Kim kurra zaminga qilmoqda da'vo.  
Xudo shu mo'tabar kunlaring haqqi,  
Bobomga havo ber, top - toza havo!

\*\*\*

Mudom qorin to'ysa, ko'ngil to'y maydi,  
Ro'yoblar ketidan orzular sanab.  
Meni ulg'aygani yoshlik qo'y maydi,  
Birgayam kirmagan qizingman Onam!

Goho ish ortida ovvora bo'ldim,  
Gohi ishq o'tida yondim, tomoman.  
Ammo ulg'aymabman, men shuni bildim,  
Birgayam kirmagan qizingman Onam!

Bor bo'l sin, bolalik ketmagan boshim,  
Boshimni eggani poying bor bo'l sin.  
Qo'llaring bor bo'l sin - mening bardoshim,  
Ulg'ayishi uchun - go'l qizing sening!

\*\*\*

Salom berdim, aligingiz yo'q,  
Xafamisiz, ranjitdimmi yo.  
Men sog'ingan suhbatlar sobiq,  
Manzilingiz begona go'yo.

Men sog'indim bitta singilcha,  
Agar juda arzon qoldi bu.  
Ust- boshi kir bola ko'ngilcha,  
Ammo ich- ichida bor yog'du.

Kechgan kunlar soxta gulmasdi,  
Kuz bo'lsayam mayliydi hozir.  
Meni sizcha hech kim bilmasdi.  
Mehrim tutdim jonimdan uzib.

Oralagan gumon hadik ne,  
Qay o'yingiz taqdi taqiqni.  
Nima qibdi dunyoga kelib,  
Sizdan boshqa kimga yoqibman?!

\*\*\*

Qaytdim, men borarim o'sha, manzillar o'sha,  
Alamlar o'shadir, hazinlar o'sha.  
Yigirma yoshimga besh fasl qo'shib,  
Bir kunda o'zgargan fasllar o'sha.

Balki maqsad bitib, yo'llar o'zgarar,  
Bo'yalar, buzilar, qurilar qayta.  
Titratmaydi endi eski sezgini  
Chaqirsam ham hatto, ismini aytib.

Qaytdim!  
Masofa shu, sengacha uzoq,  
Balki avvaldan ham cho'zilgan ozroq.  
Men qurgan dunyoni butkul buzgani,  
Tillar o'sha- o'sha, qo'lsiz, beoyoq!

O'sha gap, azizim, egilganim rost,  
Va yana sinmagan ayolligim ham.  
Eski-yu yangilar hali juda past,  
Onamning poyida omon boshimdan!

\*\*\*

Yuragingda tug'ilsin Rahmon,  
Rahim qilgin holimga yo Ishq.  
Men avjida yig'lab yuborgan,  
Qiblasida jon bergan qo'shiq!

Mard bo'l!  
Mardga muhtoj muhabbat,  
Kiftlaringdan oqsin muddao.  
Vafo sevgi eliga sabab,  
Boshqasiga qaytarma sado

Qarshi olar yog'u va yag'mo,  
Sovuq shahar, issiq bir yurak.  
Bo'ldi!  
Bas qil!  
Mantiqni chaqma!  
Manglayingni qo'lingga tirab!

Uchamizmi?!

Baland va odil!

Yer sharidan uzoq va oppoq!

Qara bu ishq nelarga qodir,  
Bizga bizni qilmoqda saboq!

Nafisa Omon

To'qqizinchi mo'jiza

*She'rlar*

Farg'ona 2017

To'plovchi

*Ug'iloybegim Shermatova*

Nashrga tayyorlovchilar

*Azamat Mo'ydinov  
Jaloliddin Umar*



